

O'ZBERISTON RESPUBLIKASI

OLIY VA O'RTA MAXSUS TA' LIM VAZIRLIGI

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI

PEDAGOGIKA VA JISMONIY MADANIYAT FAKULTETI

BOSHLANG'ICH TA'LIM METODIKASI KAFEDRASI

«ONA TILI»

fanidan

MA`RUZLAR MATNI

(Sintaksis)



Muallif:

f.f.n., dotsent M.Hamidova

NAMANGAN – 2012

Ushbu ma`ruzalar matni hozirgi zamon adabiy tilini o`rganishda muhim manbaa bo`lib xizmat qiladi. Chunki bunda o`zbek tili grammatikasining sintaksis bo`limini o`rganishida qiyinroq deb topilgan mavzularga kengroq o`rin berilgan. Shunga ko`ra ushbu ma`ruzalar to`plami pedagogika va jismoniy madaniyat fakultetining boshlang`ich ta`lim va sport tarbiyaviy ish yo`nalishi, kunduzgi bo`lim, 3-kurs talabalari uchun mo`ljallangan.

Muallif:

f.f.n., dotsent M.Hamidova

Taqrizchilar:

p.f.n., dotsent K.Abdullayev
katta o`qituvchi D.Tojiboyeva

Ushbu «Ona tili» fanidan tayyorlangan ma`ruzalar matni Nam DU ning boshlang`ich ta`lim metodikasi kafedrasining umumiy yig`ilishida ko`rib chiqilgan va nashr etishga tavsiya qilingan.

2012- yil _____

№ ____-sonli yig`ilish bayoni

Kafedra mudiri:

p.f.n. Y.Shaamirova

SINTAKSIS.

Mavzu: Sintaksis. Soʻz birikmasi.

Reja:

1. Sintaksis haqida umumiy maʼlumot.
2. Gapda soʻzlarning oʻzaro birikish usullari.
3. Soʻz birikmasi va uning turgʻun birikmasi va gapdan farqi.
4. Soʻz birikmasining birikish usullari.
5. Soʻz birikmasining tasnif qilish yoʻllari.

Tayanch iboralar:

Sintaksis, gap, bosh va ikkinchi darajali boʻlaklar, predikativlik, gap turlari, soʻroq, darak, undov, buyruq, gap strukturasi.

Mavzuqa doir muammolar:

1. Sintaksis haqida maʼlumot bering.
2. Sintaksisning oʻrganish obyektni ayting.

1. Sintaksis haqida umumiy maʼlumot.

Sintaksis grammatikaning bir boʻlimi boʻlib, unda soʻz birikmasi va gap, ularning tuzilishi hamda turlari oʻrganiladi.

Soʻz birikmasi va gap mustaqil sintaktik birliklar boʻlib, gap kommunikativ, yaʼni aloqa vositasi vazifasini bajaradi. Soʻz birikmasi predmet, belgi, xarakter kabi tushunchalarning nomlarini aniqlashtiradi.

Soʻz birikmasi mustaqil soʻzlardan tuziladi, bu gaplar soʻz birikmasining xokim va tobe komponentlarini tashkil qiladi.

Masalan: yaxshi, talaba, kitobni oʻqimoq, raketadan tez soʻz birikmalari tarkibidagi talaba, oʻqimoq, tez soʻzlari xokim, yaxshi, kitobni. raketadan soʻzlari esa tobe komponentlardir.

Gal bir soʻzdan yoki soʻzlarning birikuvidan tuziladi. Masalan: Bahor, Hammayoq koʻrkam tusga kirgan. Birinchi gap faqat bir soʻzdan, ikkinchi gap esa soʻzlarning maʼno va grammatik jihatdan bogʻlanishidan tashkil topgan.

Soʻzlar birikmasidan tashkil topgan gaplar, avvalo, soʻz birikmalariga, soʻz birikmalari gap boʻlaklariga ajratiladi. Chunonchi, yuqoridagi misolda qoryib koʻrina boshladi — birikma; togʻlar — ega, koʻrina boshladi — kesim, qoryib — hol boʻlib, u kesim bilan bir birikmani tashkil etadi.

Demak; sintaksis soʻz birikmasi va gap haqidagi taʼlimotdir.

2. Gapda soʻzlarning oʻzaro birikish usullari.

Odatda gapda soʻzlar oʻzaro maʼno jihatidan maʼlum grammatik qonun — qoidalar asosida birikadi. Masalan: gʻir — gʻir shabada turli — tuman giyohlarning hidlarini olib keladi. (O.) gapida soʻzlar oʻzaro quyidagicha birikkan: 1) gʻir — gʻir shabada, 2) turli — tuman giyohlar(ning), 3) giyohlarning hidlari (ni), 4) hidlarini olib keladi, 5) shabada olib keladi. Bularning 1,2,3, va 4—lari grammatik butunlikni tashkil qilib, yaxlit tushunchani ifodalaydi. Har bir jufti tarkibidagi soʻzlar oʻzaro maʼno va grammatik jihatdan bogʻlanib, ergash bogʻlanishli soʻz birikmasini tashkil qiladi.

Shu misoldagi 5 — bogʻlanish (shabada olib keladi) esa ega va kesimdan tashkil topgan boʻlib u predikativ bogʻlanish sanaladi. Shuning uchun ham Yo gap hosil qiladi.

Shunday qilib, soʻz birikmasini hosil qilish uchun kamida ikki mustaqil soʻzning boʻlishi hamda shularning oʻzaro ergashish (tobelanish) yoʻli bilan bogʻlangan boʻlishi shart.

Demak, maʼno va grammatik jihatdan oʻzaro bogʻlanib kelgan ikki va undan ortiq mustaqil soʻz birikmasi deyiladi.

Z. Soʻz birikmasi va uning turgʻun birikma va gapdan farqi.

Soʻz birikmasi turrun birikmalardan farq qiladi. Turgʻun birikmalari til birligi boʻlib, bir leksik maʼno ifodalaydi va koʻpincha bitta gap boʻlagi vazifasini bajaradi. Masalan: Notiq takliflarni ovozga qoʻyishni soʻraydi.

Soʻz birikmasi esa nuqta birligi boʻlib, nutq soʻzlanayotgan paytda tuziladi va tarkibida komponentlar boshqa —boshqa gap boʻlagi boʻlib keladi.

Soʻz birikmasini gapdan ham farqlash lozim. Soʻz birikmasi tushuncha ifodalab, nominativ(ataash) vazifasini bajaradi, shuning uchun intonatsion tugallikka ega emas. Gap esa fikr ifoda qilib,kommunikativ(aloqa qilish) vazifasini bajaradi, intonatsiya jihatidan ham tugallikka ega boʻladi. Soʻz birikmasi kamida ikki soʻzdan tuziladi, gap esa baʼzan bir soʻzdan ham tashkil topishi mumkin.

Soʻz birikmasi teng bogʻlangan soʻzlardan xam farq qiladi.

Masalan: Terak va oʻrik sarjinlar charsillab yonmoqda.(O) Bunda terak va oʻrik soʻzlari teng boklanib.uyushiq boʻlak hosil qilib, soʻz birikmasi sanalmaydi.

4. Soʻz birikmalarining birikish usullari.

Tobe birikma uch xil: 1) boshqaruv; 2) bitishuv; 3) moslashuv, Tobe soʻzning hokim soʻz talab etgan shaklda kelishi boshqaruv deyiladi. Masalan: el yaxshilikni unutmaz. (Maqol) Yomondan qoch, yaxshiga quloch och. (Maqol) Bu gaplardagi yaxshilikni unutmaz, yomondan qoch, yaxshiga quloch och soʻz birikmalarining xokim komponentlari (unutmaz, qoch, quloch och) tobe komponentlarning (yaxshilikni, yomondan, yaxshiga) tushum, chiqish va joʻnalish kelishigi shakllarida kelishini talab qilmoqda.

Boshqaruv yoʻli bilan tuzilgan soʻz birikmasida hokim soʻzning talabi bilan tobe soʻz koʻmakchi shaklda ham boʻladi.

Masalan: Mehnat birla inoqlashsang, tan ogʻrigʻin koʻrmassan. (Maqol) Bunda mexnat birla inoqlashsang birikmasida hokim soʻzning talabi bilan tobe soʻz (mehnat birla) koʻmakchili shaklda kelgan.

Bogʻlanishning bu turida hokim soʻz koʻpincha feʼl bilan ifodalanadi. Baʼzan sifat, ravish va boshqa soʻzlar ham hokim soʻz boʻlib kelishi mumkin. Masalan: temirdan mustaxkam, hammadan sekin, ulardan bittasi kabi.

Hokim va tobe soʻzning oʻzaro tartib hamda ohang yordamida munosabatga kirishuvi bitishuv deyiladi. Bitishuv yoʻli bilan tuzilgan soʻz birikmasi tarkibidagi soʻzlar quyidagi munosabatlarni koʻrsatadi:

1. Sifatlovchi — sifatlanmish: Har bir qurilishning loyixasi juda koʻp joylarning tasdigʻidanoʻtib keladi.(P.q.)

2. Ravish, ravishdosh,sifat, taqlid soʻzlar bilan ifodalangan x.ol — feʼl bilan ifodalangan biror boʻlak: Seni poylab, anchagina oʻtirdi.(O)Daraxtlardan toʻkilib ulgurmayan yaproqlar ora — sira shirt —shirt uziladi.(O,) Bu gaplarda poylab oʻtirdi, ora —sira uziladi soʻz birikmalari bitishuv yoʻli bilan tuzilgan.

Qaratuvchi va qaralmish munosabatini ifodalovchi soʻz birikmalarining komponentlari orasida moslashuv aloqasini koʻrish mumkin. Ammo qaratuvchi va qaralmish munosabatida qaysi soʻz hokim, qaysi soʻz tobe ekanini belgilash qiyin. qaratqichni hokim soʻz deb hisoblasak, u qaralmishning talabi bilan qaratqich kelishigi shaklini oladi. Demak, bu oʻrinda oʻzaro hokimlik, tobelik munosabati mavjud. Masalan: Doʻstingning yututi sening yutugʻingdir.(Maqol) Bu misoldagi qaralmishlar (yututi, yutugʻing) oʻzi aloqador soʻzlarshshg (doʻstingning, sening) qaratqich kelishik shaklida kelishini, qaratuvchilar (doʻstingning, sening) ham qaralmishlarningegalik affiksini olishini talab qilmoqda. Bunda qaratuvchi va qaralmish oʻzaro tobe, xam xokimdir.

5. Soʻz birikmasini tasnif qilish yoʻllari.

Soʻz birikmalari hokim soʻzning qaysi soʻz turkumidan ekanligiga koʻra:

1) otli: samimiy odam, mexnatsevar bola, uzun tolali paxta, paxtadan yumshoq, ulardan uchtasi, choʻqqiga chiqayotganlar kabi;

2) feʼlli: institutda oʻqiydi, quvnab ishlarimoqda, tez yugurib, kattalarga koʻmaklashgach;

3) ravishli: qushdan tez, undan goqoriroqda;

4) modal soʻzli: Hayosizda vafo yoʻq soʻz birikmalariga boʻlinadi.

Soʻz birikmalari tobe soʻzning qanday gap boʻlagi vazifasini bajarishga koʻra quyidagi soʻz birikmalariga boʻlinadi:

1) toʻldiruvchili: talabalar bilan suhbatlashmoq, oʻquvchilarga topshirmoq, xonani tozalamoq;

2) aniqlovchili: bepoyon dala, minglarcha xalqlar kabi;

3) holli: minbarga chiqmoq, jiddiy gaplashmoq kabi. Soʻz birikmalari tuzilishiga koʻra ikki xil boʻladi:

1) sodda soʻz birikmalari,

2) murakkab soʻz birikmalari.

Sodda soʻz birikmasi ikki gap boʻlaginingbiror usul bilan oʻzaro birikuvidan tashkil topadi. Masalan:mazmunli suxbat, zavq bilan mehnat qilmoq.

Murakkab soʻz birikmasi ikkidand ortiq mustaqil soʻzlarning turli usulda birikuvidan tuziladi.

Masalan: Qodir. . . imtihonlardan yaxshi oʻtganidan xursand. (SHuxrat.)

Bunda yaxshi oʻtganidan, imtihonlardan oʻtganidan birikmalari sodda soʻz birikmalaridir: yaxshi oʻtganidan xursand birikmasi esa murakkab soʻz birikmasidir. Bu birikmada hokim komponent (xursand) yakka soʻz bilan ifodalangan; tobe komponent (yaxshi oʻtganidan) soʻz birikmasi bilan ifodalangan.

Nazorat uchun savollar:

1.Sintaksisning maʼnosini tushuntiring.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1.Oʻzbek tili (Universitet va pedagogika institutlari talabalari uchun). Qayta ishlangan 2-nashri. -T.: Oʻzbekiston, 1991.

1. Nurmatov A. va boshqalar. Oʻzbek tilining nazariy sintaksisi. - T.: Fan, 1992 .

2. Rasulov R. Soʻz valentligi va sintaktik aloqa // Oʻzbek tili va adabiyoti, 1992.- № 5-6.

3. Aliyev A., Sodiqov K. Oʻzbek adabiy tili tariixidan. (Universitet talabalari uchun darslik).- T.: Oʻzbekiston, 1994.

Mavzu: Gap. Gapning ifoda maqsadiga koʻra turlari.

Reja:

1. Gap haqida umumiy maʼlumot.

2. Gapning ifoda maqsadiga koʻra turlari.

3. Gapning tuzilish jihatdan turlari.

Tayanch iboralar: Gap, bosh va ikkinchi darajali boʻlaklar, predikativlik, gap turlari, soʻroq, darak, undov, buyruq, gap strukturasi.

Mavzuqa doir muammolar:

1. Gap deb nimaga aytiladi?

2. Gapning asosiy belgilarini tushuntiring.

1. Gap haqida umumiy maʼlumot.

Kishilarning oʻzaro fikr almashuvi gap orqali sodir boʻladi. Gap baʼzan kishilarning xis — tuygʻusini ham ifodalashi mumkin.

Voqelikni va unga boʻlgan munosabatni ifodalash uchun grammatik jixatdan tugallikka ega boʻlgan soʻz yoki soʻzlar bogʻlanmasi gap deyiladi.

Gapning asosiy grammatik xususiyatlaridan biri predikativlik boʻlib, u ifoda etilayotgan fikrning voqelikka munosabatini (tasdiq, inkor, gumon, shubha, zururlik, mumkinlik kabi) bildirib, obʼektiv modda xamda zamon va shaxssan kategoriyalari orqali ifoda qilinadi.

Predikativlik ko`pincha so`zlarning predikativ munosabatiga kirishuvi bilan, ya`ni ega kesim aloqasi orqali ifodalanadi. Masalan: Intizomli lashkar engilmas. (Maqol.) Davlating — ota — onang. (maqol.)

2. Gapning ifoda maqsadiga ko`ra turlari.

Fikr almashish jarayonida so`zlovchi biror narsa, hodisa haqida xabar berishi, noma`lum bo`lgan voqea — hodisalar xaqida ma`lumot olishni istashi yoki o`zaro shaxsni biror narsani bajarishga undashi mumkin. Shuning uchun gap kommunikativ birlik sifatida biror voqea — hodisa haqida xabar berish, so`rash yoki biror narsaga undashni ifodalash uchun xizmat qiladi.

Gaplar ifoda maqsadiga ko`ra quyidagilarga ajratiladi: 1) darak gaplar; 2) so`roq gaplar; 3) buyruq gaplar.

Darak gaplar borliq hodisalari haqida xabar qiluvchi gaplardir: qish keldi. Kechagina bemorning ingrashidek xazin kuz sadolariga to`lgan bog`lar butun jimib qoldi. Xazon shitirlamaydi, yalong`och shohlarga arg`amchi osgan mezonlar chayqalmaydi. (O`.H.)

Darak gaplar darak intonatsiyasi bilan talaffuz etilib, oxirida oxang pasayadi.

Darak gapning kesimi ko`pincha ijro, ba`zan shart — istak mayli shaklidagi fe`l bilan ifodalanadi. Ayrim hollarda darak gapning kesimi ot kesim bo`lishi xam mumkin. Masalan: Dunyoda noxaqlik qancha kamaysa, tuxmat barham esa shuncha yaxshi. Inson umri ming yil emaski, uning besh —olti yilini g`am —g`ussada o`tkazsa...(Shuhrat.) Darak gap oxirida nuqta qo`yiladi.

So`zlovchi uchun noma`lum bo`lgan voqea — xodisa, harakat — holat haqida ma`lumot olish ko`zda tutilgan gaplar so`roq gaplar deyiladi. Masalan: qaysi tumanda cho`ponlik qilasiz. Begali aka? (O.Xusanov,) biz lojuvard koniga chindan xam chiqadigan bo`ldikmi?(S.Karomatov)

So`roq gaplar ko`pincha javob talab qiladi. Bunday so`roq gaplar sof so`roq gaplar deyiladi. Masalan: Kel, ko`zim, nima ishing bor? (O.)

Ba`zi so`roq gaplarda javob talab qilinmaydi — so`roqning ichida uning javobi xam anglashilib turadi. Bu tipdagi so`roq gaplar ritorik so`roq gaplar deyiladi: Dunyoda sizga ishongan, sizni jonidan aziz ko`rgan kishining yuziga oyoq bosishdan og`ir jinoyat bormi? (A. Muxiddin.)

So`roq gaplar so`roq olmoshlari (.. O`n ikki oy ho`l mevdadan uzilmaydigan o`lka boshqa qaerda bor? (Shuhrat.), so`roq yuklamalari (Sahroning tuzli suviga qo`y sutidan tomizib shir choy ichganmisiz? (As.M.)), so`roq inntonatsiyasi (Issiqqa qolib ketibsiz? — deb so`radi yigit. (O`.H.)) orqali shakillanadi.

So`roq gaplar oxiriga so`roq belgisi qo`yiladi.

Buyruq gaplar. So`zlovchining biror narsaga buyurish, undashi yoki iltimos qilishi, maslahat berishi kabilarni ifodalaydigan gap buyruq gap deyiladi.

Masalan: Vatan tuyg`usini doimo yurakda saqlangiz.

Buyruq gapning kesimi odatda, buyruq —istak mayli shaklidagi fe`llar bilan ifodalanadi. Buyruq gaplar buyurish, do`q, iltimos, yalinish, maslahat berish intonatsiyasi bilan aytiladi. Buyruq gaplar oxiriga ko`pincha nuqta qo`yiladi.

Undov gaplarda fikr kuchli his — hayajon, emotsiya bilan ifoda qilinadi: Nihoyat, direktor xayajonini yashiraolmay: «Ofarin, singlim! Yashang!» — dedi. (S.Karomatov.) Oliy maktabda o`qituvchi bo`lish katta baxt! (M.Salom.)

Darak, so`roq, buyruq gaplar kuchli his —xayajon bilan aytilsa, undov gapga aylanadi. Masalan: Niyati — sahroda xam yangi shaxarcha barpo etib, cho`lni bog` — bo`stonga aylantirish! (O.Yo.) Faqat odam qadrin bilar odam bo`l, inson dardini bilguvchi inson!..(E.V.)

Ko`rinadiki, undov gaplarning tuzilishida, birinchidan inntonatsiya. Ikkinchidan, ular tarkibida kelgan qanday, naqadar, qancha, shunday kabi emotsional kuchaytiruv ma`nosidagi so`zlar; oh, eh, voy, rahmat, ofarin kabi undovlar muxim rol` o`ynaydi.

Undov gap oxiriga undov belgisi qo`yiladi.

Z.Gaplarning tuzilish jihatdan turlari.

Odatda, har qanday gapning grammatik asosini bosh bo`laklar: ega va kesim tashkil qiladi. Gaplar birgina grammatik asosdan, ba`zan esa ikki yoki undan ortiq grammatik asosdan tuzilishi mumkin. Shu jihatdan gaplar ikkiga bo`linadi: sodda gaplar va qo`shma gaplar.

Grammatik asosi bitta bo`lib, ma`lum fikr yoki Xis — hayajonni ifodalovchi gaplar sodda gap deyiladi.

Ikki va undan ortiq grammatik asosdan tashkil topib, murakkabroq fikr anglatuvchi gap qo`shma gap deyiladi. Sodda gapda bitta predikativ qism mavjud bo`lib, qo`shma gapda esa predikativ qismlar (grammatik asoslar) birdan ortiq bo`ladi. Masalan: Chor —atrof yaproqlarning mungli shivir — shiviriga to`ldi. (O`-H-) Hamon dalalar ustida bolakaylarning qichqirig`i.. yangrar, quyosh jilmayib boqar, sarg`aygan ko`katlar kokilini shudring jilolantirdi. (O`.H.) Birinchi gap sodda gap bo`lib.uning grammatik asosi bitta: u ega va kesimdan (Chor —atrof to`ldi) iboratdir. Ikkichi gap esa qo`shma gap bo`lib, uning grammatik asosi uchta: 1) qichqirigi yangrar, 2) quyosh boqar, 3) shudring jilolanadi. Bular o`zaro intonatsiya (ohang) orqali birikkan.

Sodda gaplar grammatik asosining tarkibiga ko`ra ikki xil: ikki tarkibli gaplar va bir tarkibli gaplar.

Grammatik asosi ikki bosh bo`lakdan —ega va kesimdan iborat bo`lgan gaplar ikki tarkibli gaplar deyiladi. Masalan: Mehnatdan do`st ortar. (Maqol.) Bu gapning grammatik asosi ega (do`st) va kesim (ortar) dan iborat.

Grammatik asosi bir bosh bo`lakdan iborat bo`lgan gaplar bir tarkibli gaplar deyiladi. Masalan: Gapni gapir uqqanga, jonni jonga suqqanga. (Maqol.) Bu gapning grammatik asosi faqat kesim. (gapir.) dan iboratdir.

Sodda gaplar, ikkinchi darajali bo`laklarning qatnashish qatnashmasligiga ko`ra, yig`iq va yoyiq gaplarga bo`linadi.

Bosh bo`laklar (ega va kesim) dangina tashkil topgan gap yirik gap, ikkinchi darajali bo`laklar ham ishtirok etgan gaplar yoyiq gap deyiladi. Masalan: yomg`ir tindi. Bulutlar hamon qaysarlik bilan quyosh yuzini to`sib.. turardi. (S.Karomatov.) Birinchi gap yig`iq gap bo`lib, ega (yomg`ir) va kesim (tindi) dan tuzilgan, Ikkinchi gapda bosh bo`laklar (bulutlar — ega, to`sib turardi - kesim) dan tashqari, ikkinchi darajali bo`laklar ham (hamon, qaysarlik bilan hollar, quyosh — aniqlovchi, yuzini—to`ldiruvchi) qatnashgan.

Shuning uchun bu gap yoyiq gapdir.

Gaplar zarur bo`laklarning to`la ifodalanishi yo tuzilishiga ko`ra ikkiga bo`linadi: to`liq gap va to`liqsiz gap,

Masalan:

1 — Jamshidbek uydamlar? (to`liq gap)

— Uydalar, (Mirm)

2 —Nechta bolalaring bor? (to`liq gap)

— Ikkita.(T.Po`lat)

Birinchi misoldagi «uydalar» to`liqsiz gap —ega (Jamshidbek) tushib qolgan. Ikkinchi misoldagi to`liqsiz gap «ikkita» da ega (bolalarim) va kesim (bor) tushib qolgan.

Sodda gaplar bo`laklarga ajralish — ajralmasligiga ko`ra ikki xil bo`ladi: bo`laklarga ajraladigan gaplar va bo`laklarga ajralmaydigan gaplar.

So`zlar bog`lanmasidan tuzilib, gap bo`laklarini (ega va kesimni,ularga bog`lanib kelgan ikkinchi darajali bo`laklarni) aniqlash (ajratish) mumkin bo`lgan sodda gaplar bo`laklarga ajraladigan gaplar deb yuritiladi. Masalan Mashina darvoza oldida to`xtadi. (O.Yo.) U otni yaxshi ko`rar edi. (SH.g`ulomov.)

Yakka bir so`zdan tashkil topib, tarkibi gap bo`laklariga ajralmaydigan sodda gaplar bo`laklarga ajralmaydigan gaplar deyiladi. Bunday gaplarga ha, yo`q, mayli, bo`pti, nahotki, salom, rahmat kabi so`z — gaplar kiradi. Masalan: Xayr, aziz do`stlarim! (Q.Xalilov.)

Nazorat uchun savollar:

1.Gap haqida ma`lumot bering.

2.Gapning asosiy belgilarini ayting.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbek tili (Universitet va pedagogika institutlari uchun) qayta ishlangan 2-nashri.- T.: O'zbekiston, 1991.
2. A.Nurmatov va boshqalar. O'zbek tilining nazariy sintaksisi.- T.: Fan, 1992.
3. A.Aliyev., K.Sodiqov. O'zbek adabiy tili tarixidan (Universitet talabalari uchun darslik). T.:O'zbekiston, 1994.
4. R.Rasulov. So'z valentligi va sintaktik aloqa //O'zbek tili va adabiyoti, № 5-6. - 1992.

MAVZU: Gap bo'laklari. gapning bosh bo'laklari.

Reja:

1. Gap bo'laklari haqida umumiy ma'lumot.
2. Ega va uning ifodalanishi.
3. Kesim va uning ifodalanishi.
4. Ega bilan kesim orasida tirening ishlatilishi.
5. Kesimning ega bilan moslashuvi.

Tayanch iboralar: Gapning bosh bo'laklari, mutloq hokimlik, ifodalanish, tasdiq va inkor, sodda va qo'shimcha fe'l, fe'l kesim va ot kesim.

Mavzuga doir muammolar.

1. Gap bo'laklari to'g'risida tushuncha bering.
2. Bosh bo'laklarni izohlang.
3. Ega va uning ifodalanishini ayting.
4. Kesimva uning turlari, ifodalanishini tushuntiring.
5. Ega tarkibini, kesim tarkibini misollar asosida izohlang.

1. Gap bo'laklari haqida umumiy ma'lumot.

Gap bo'laklari, dastlab, bosh va ikkinchi darajali bo'laklarga bo'linadi.

Bosh bo'laklar gapning grammatik asosini tashkil qiladi. Fikr, asosan, gapning grammatik asosi orqali ifodalanadi.

Ikkinchi darajali bo'laklar esa bosh bo'laklarni aniqlab, to'ldirib keladi.

Bosh bo'laklar ega va kesimdan iborat. Ikkinchi darajali bo'laklar to'ldiruvchi, aniqlovchi va hollardir.

2. Ega va uning ifodalanishi.

Kesim orqali izohlanadigan predmentni anglatuvchi, gapda mutloq hokim vaziyat egallaydigan bosh bo'lak ega deyiladi.

Ega keng ma'noda predmet tushunchasini bildirib, kesimdan anglashilgan belgi, harakat, holatning kimga yoki nimaga qarashli ekanini ko'rsatadi. ega bosh kelishik shaklidagi so'zlar bilan ifodalanadi:

Eganing otlashgan son bilan ifodalanishi.

Besh — o'ning yarmi. Ikkovi ham bir —biriga juda o'xshash. (P.Qodirov)

Ikkovi hiring — hiring kuladi. (P.Qodirov.)

Eganing otlashgan sifat bilan ifodalanishi.

Sifatlar otlashib, gapda ega vazifasini bajaradi. Bunda sifat aniqlab kelayotgan soʻz tushiriladi, oʻsha soʻzdagi hamma belgi—xususiyatlar sifatga oʻtadi.

Masalan: Ilmli ming yashar, ilmsiz bir yashar.(Maqol.) Yaxshi qand yedirar, yomon pand edirar. (Maqol.) Bilimli oʻzar.(Maqol.)

Eganing otlashgan sifatdosh bilan ifodalanishi.

Sifatdosh ham otlashib, gapda ega vazifasida keladi. Masalan: Oʻtganlar Azizga bittar ajablanib qarashdi. (Oʻ.Usmonov.)

Eganing otlashgan ravish bilan ifodalanishi.

Ravishning ayrim turlari otlashib, gapda ega vazifasini bajaradi: Oʻqishning erta — kechi boʻlmas. (Maqol.)

Eganing harakat nomi bilan foydalanishi.

Feʼlning harakat nomi shakli bosh kelishikda kelib ega vazifasini bajaradi.

Masalan: Boshliq boʻlish oson, boshlamoq qiyin. (Maqol)

Endi uning oʻrnini ham turli-tuman maʼruzalar egallagan.(P.Qodirov.)

Eganing otlashgan taqlid soʻz bilan ifodalanishi.

Taqlid soʻz otlashib, gapning egasi vazifasida kelishi mumkin. Masalan: Otning dukur— dukuri relʼslarning tutashgan joyiga urilayotgan gʻildirak tovushi bilan uygʻunlashib ketardi. (Ch.Aytmatov.) eganing frazeologik ibora bilan ifodolanishi. Bir butun holda qoʻllanadigan frazeologik iboralar ham gapda ega boʻlib keladi: Birovning koʻnglini olish qiyin, koʻnglini choʻktirish esa oson. Bemorniing koʻnglini koʻtarib qoʻyish unga yarim sogʻlik baxsh etishdir. (Maqol) eganing soʻz birikmasi bilan ifodalanishi.

Har xil qolipda tuzilgan soʻz birikmasi ham, tuzilishiga koʻra sodda yoki murakkab boʻlishdan qatʼiy nazar, gap tarkibida kelib ega vazifasini bajaradi: Raqibidan qaarzdor boʻlish va buni uzishning ilojini topolmaslik ham Holbekning oriyatiga tegdi.(P.qodirov.)

3. Kesim va unig ifodalanish.

Ega anglatgan predmetning predikativ belgisini ifodalaydigan yoki ega xaqidagi xukmni bildiradigan bosh boʻlak kesim deyiladi. Kesim egaga nisbtan tobe boʻlib, oʻziga bogʻlanib kelgan ikkinchi darajali boʻlaklarga nisbatan hokimdir . Kesim qaysi soʻz turkumi bilan ifodalanishga koʻra ikki xil boʻladi: feʼl kesim va ot kesim.

Feʼlning turli xil shakllari orqali ifodalangan kesim feʼl kesim deyiladi. Masalan: Uning qoʻl ostida yangi shaharning koʻchalariga suv taraydigan yigirmadaan ortiq odam ishlardi.(P.Qodirov-)

Feʼldan boshqa soʻz turkumlari bilan, shuningdek, feʼlning harakat nomi shakli bilan ifodalangan kesim ot kesim deyiladi.

Ot kesimning olmosh bilan ifodalanishi:

Avazning akasi Ortiq shu edi.(P.Qodirov.) Sen uning kimi boʻlasan.hech kimi?!(P.Qodirov.)

Ot kesimning harakat nomi bilan ifodalanishi:

Uning zoʻr istagi — otasini zindondan qutqarishu Hamidani yana koʻrish. (P.Qodirov.)

Ot kesimning ravish bilan ifodalanishi.

Ayniqsa arxitektura soxasida yangiliklar koʻp.(O.Yoqubov.)

Ot kesimning modal soʻz bilan ifodalanishi:

Ilgari bu kishinig katta bir bogʻi bor edi.(P.Qodirov.) Hozir «oshihalol» aytib toʻrva koʻtarib yuradigan podachilar yoʻq.(P.Qodirov.)

Ot-kesimning undov soʻz bilan ifodalanish:

Ha, til degan misoli toy, tiyolmasang xolingga voy (J.Jalil.)

Kesim yakka soʻzlar bilan ifodalanibgina qolmasdan, baʼzan frazeologik ibora bilan ham ifoda etiladi.

Masalan: Farida kechikkaniga afsus edi (S.Anorboyev.)Bulutlar hamon qaysarlik bilan quyosh yuzini toʻsib, nur yoʻliga gʻov solib turardi. (S.Karomatov.)

Kesim baʼzan sodda yoki murakkab soʻz birikmalari bilan ifoda etiladi. Masalan: eng toʻrdagi xilvat chodir — murod uyi. (P.Qodirov.) Soylar sohillarga chalqiganida, Dala goʻyo qishda qirchillama qor.(Mirtemir.)

Birinchi gapda kesim ikki mustaqil soʻzdan tashkil topgan sodda birikma bilan ifodalangan. Ikkinchi gapning kesimi vazifasidagi soʻz birikmasi tuzilishiga koʻra murakkab boʻlib, uch mustaqil soʻzdan tuzilgan.

Sodda va tarkibli kesimlar.

Kesim tuzilishiga koʻra ikki xil boʻladi:

- 1) Sodda kesim;
- 2) tarkibli (sostavli) kesim

Yakka bir negizli soʻzlar bilan ifodalangan kesim sodda kesim boʻladi. Sodda kesim qaysi soʻz turkumi bilan ifodalanishiga koʻra, ikki xil: sodda feʼl kesim va sodda ot kesim.

Sodda feʼl-kesim feʼlning tuslangan shakllari bilan yoki tuslanmagan shakllari bilan tuslanmagan ravishdosh bilan ifodalanadi. Masalan: Ot yiqilayotganda Humoyun oyoqlarini uzangidan chiqarib, egardan qumga sakradi. (P.Qodirov.) Koʻkda oq bulut karvonlari yal —ov suzsa —da, quyosh hamomat bilan chaqnaib koʻtarildi. (Oybek)

Sodda ot kesim ot, sifat, son, olmosh, ravish va feʼlning harakat nomi shakli bilan ifodalanadi. Masalan: Bu, ehtimol, ona suti bilan kirgan gʻayrushuriy bir tuygʻudir. (P.Qodirov.) Endi navbat sizniki. (P.Qodirov.)

Tarkibli (sostavli) kesim mustaqil soʻz bilan yordamchi soʻzning birikishidan tuziladi. Tarkibli, kesim odatda soʻzning analitik shakli bilan ifodalanadi.

Masalan, Avaz chopib keldi — yu lieykani akasining qoʻlidan yulib olib, sindirib tashladi.

Tarkibli kesimlar ham ifodalanishiga koʻra sodda kesimlar singari ikki xil boʻladi: Tarkibli feʼl kesim, tarkibli ot kesim.

Tarkibli feʼl-kesim ikki yoki undan ortiq negizdan tuzilgan feʼllar bilan ifodalanadi. Bunda oʻzining maʼnosini saqlagan etakchi feʼl hisoblanadi, qolganlari esa koʻmakchi feʼl boʻlib, etakchi feʼldan anlashilgan xarakat, holatga *qoʻshimcha* maʼno orttiradi. Unda etakchi feʼl asosan ravishdosh shaklda boʻladi, baʼzan esa sifat, sifatdosh shaklida ham boʻlishi mumkin.

Masalan: Maktabdagilarni qoldirib, kichkinalaringni etaklab kelaver, ogʻayni. (A.Muxtor.) eski hayotini eslagisi ham kelmasdi. (A.Qahhor.)

Tarkibli ot kesim feʼldan boshqa soʻzlarni bogʻlama vazifasida kelgan koʻmakchi feʼl bilan yoki toʻliqsiz feʼl bilan birikishidan hosil boʻladi.

Tarkibli ot kesimda asosiy maʼno birinchi qismda boʻladi, ikkinchi qism, yaʼni bogʻlama esa qoʻshimcha etakchi qismi sifatida ot, sifat, son, olmosh, ravish, feʼlning harakat nomi shakli, modal soʻz kelishi mumkin.

Masalan: Tandir kabob juda yaxshi boʻladi-da. (P.Qodirov.) Qayiq kattagina, eshkagi toʻrtta edi. (P.Qodirov.) Podshoni kuyov qilishga havasmandlar koʻp edi. (P.Qodirov.) Tengdoshlarining ichida undan tez chopadigani, chilla ochishida undan ustasi yoʻq edi. (P.Qodirov.)

Tarkibli ot kesim harakat nomi kerak, zarur, lozim shaklida ham boʻlishi mumkin. Masalan: Bu Vatanni tashlab ketmoqchi boʻlganlarga qatʼiy zarba berilmogʻi lozim. (P.Qodirov.) Endi jiyan panoh istab borsa, qonoti tagiga olishi mumkin. (P.Qodirov.)

4. Ega bilan kesim orasida tireni ishlatilishi.

1) Kesim ot, olmosh va son bilan ifodalanib, kesimlik qoʻshimchasini olmaganda, ega bilan kesim orasiga tire qoʻyiladi: Oʻzbekiston — kelajagi buyuk davlat. Besh karra besh — yigirma besh.

2) Gapning egasi yoki kesimi harakat nomi bilan ifodalanganda, ular orasida tire qoʻyiladi: Bir koʻrgan — bilish, ikki koʻrgan — tanish. (Maqol.)

3) Ega koʻrsatish olmoshi bilan ifodalanganda, ega bilan kesim orasiga tire qoʻyiladi (bunda, albatta kesimlik qoʻshimchasi boʻlmasligi kerak.): Bu — nasos stantsiyasining ulkan quvurlarini payvandlaganda chaqnagan zangori shuʼlalar. (J. Abdullaxonov.) Bular — koʻm — koʻk dov — daraxtlar. (K.Yashin.)

5. Kesimning ega bilan mosligi.

Kesim ega bilan shaxs va sonda moslashadi: Ular kulimsirab askiyaga quloq solishdi. (P.Qodirov.)

Oʻzbek tilida kesimning ega bilan son jihatidan mos boʻlishi III shaxsining birlik shaklida ham keladi: Togʻ etagida Oykoʻl qishlogʻining mirzateraklari elas — elsas koʻzga tashlanadi. (P.Qodirov.)

Ba`zan, ega ko`plik shaklda bo`lsa ham, kesim birlikda ishlatiladi: O`rmon ichidan qushlarning sayrashlari eshitilib turardi. (P.Qodirov.)

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbek tili (Universitet va pedagogika inistitutlar talabalari uchun) Qayta ishlangan 2- nashri.- T.: O'zbekiston, 1991.

U. Tursunov, J.Muxtorov, Sh. Rahmatullayev. Hozirgi o'zbek adabiy tili. T.:O'zbekiston, 1992.

2. A. Nurmanov va boshqalar O'zbek adabiy tilining nazariy sintaksisi.- T.: Fan, 1992.

3. R. Rasulov. So'z valentligi va sintaktik aloqa // O'zbek tili va adabiyoti, 1992.- № 5-6.

4. A.Aliyev, K. Sodiqov O'zbek adabiy tili tarixidan (Universitet talabalari uchun darslik) T.: O'zbekiston, 1994.

5. G'. Abdurahmonov, S. Mamajanov. O'zbek tili va adabiyoti (Oliy o'quv yurti talabalari uchun darslik) T.: O'zbekiston, 1995.

6. F. Ubayev, R. Saydullayeva, To'liqsiz gaplar haqida ba'zi bir mulohazalar // O'zbek tili va adabiyoti, 1997- №1.

A. Xojiyev. So'zning morfem tarkibi masalalariga doir // O'zbek tili va adabiyoti, 1998.

Mavzu: To`ldiruvchi.

Reja:

1. To`ldiruvchi haqida umumiy ma`lumot.
2. To`ldiruvchining turlari.
 - 1) vositasiz to`ldiruvchi;
 - 2) vositali to`ldiruvchi;

1. To`ldiruvchi haqida umumiy ma`lumot.

Gapning biror bo`lagiga boshqaruv yo`li bilan tobelanib, uning ma`nosiini to`ldiradigan ikkinchi darajali bo`lak to`ldiruvchi deyiladi. Boshqaruvchi so`zning talabi bilan to`ldiruvchi tushum, jo`nalish, o`rin — payt, chiqish kelishik shakllaridagi so`z yoki ko`makchili so`z bilan ifodalanadi. Masalan: U olim va fozil odamlar bilan suhbatlashishdan zavqlanaar edi.(M.Osim.) Bu gapdagi birinchi to`ldiruvchi (odamlar bilan)ko`makchili ot bilan, ikkinchisi(suxbatlashishdan) kelishikli xarakat nomi orqali ifodalanib,ularning har ikkalasi kesim(zavqlanar edi)ga boshqaruv yo`li bilan bog`langan.

To`ldiruvchi ot, olmosh, son, xarakat nomi, otlashgan sifat, sifatdosh, ravish, taqlid so`z, undov kabilar bilan, ba`zan so`zlar bog`lanmasi bilan ifodaalanadi. Masalan: Yon daftarchasiga nimalarnidir yozib, ko`kka qaradi. (S.Karamatov.) Birni sochsang erga, mingni berar elga.(Maqol.) Kengga— keng dunyo, torga —tor dunyo.(Maqol.)

2.To`ldiruvchining turlari.

To`ldiruvchi ikki xil bo`ladi:vositasiz va vositali.

Vositasiz to`ldiruvchi harakatni o`ziga qabul qilgan predmetni anglatib, kimni?, nimani ?, qayerni ? So`roqlaridan biriga javob bo`ladi. Vositasiz to`ldiruvchi tushum kelishigi shaklidagi so`z bilan ifodalanadi. Masalan: Ilmni mehnatsiz egallab bo`lmas.(Maqol.)

Vositasiz to'ldiruvchi belgili va belgisiz tushum kelishigi shaklidagi so'z bilan ifodalanadi: Momaqaldiriq havoni yangratib yuboradi. (O.) Baxt ulashdi, tarqatdi ziyo. (N.Narzulaev.)

Vositali to'ldiruvchi bosh, qaratqich, tushum kelishiklaridan boshqa kelishiklardagi va ko'makchili so'zlar bilan ifodalanadi. Demak, vositali to'ldiruvchi kelishikli hamda ko'makchili shakl bilan shakllanadi va shuning uchun ham u kimga?, nimaga?, nimadan?, kimdan?, kimda?, nimada?, kim bilan?, nima bilan?, kim haqida?, nima haqida? kabi xilma —xil so'roqlarga javob bo'ladi. Masalan: g'amni oh-voh bilan engib bo'lmaydi. (Yo.Sh.) Mehr pulga sotilmas. (Maqol) Dengiz dovuli bilan mashhur, saxro bo'roni bilan. (J.Abdullaxonov)

1. O'zbek tili (Universitet va pedagogika institutlar talabarlari uchun) Qayta ishlangan 2- nashri.- T.: O'zbekiston, 1991.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. U. Tursunov, J.Muxtorov, Sh. Rahmatullayev. Hozirgi o'zbek adabiy tili. T.:O'zbekiston, 1992.

2. A. Nurmanov va boshqalar O'zbek adabiy tilining nazariy sintaksisi.- T.: Fan, 1992.

3. R. Rasulov. So'z valentligi va sintaktik aloqa // O'zbek tili va adabiyoti, 1992.- № 5-6.

4. A.Aliyev, K. Sodiqov O'zbek adabiy tili tarixidan (Universitet talabarlari uchun darslik) T.: O'zbekiston, 1994.

5. G'. Abdurahmonov, S. Mamajanov. O'zbek tili va adabiyoti (Oliy o'quv yurti talabarlari uchun darslik) T.: O'zbekiston, 1995.

6. F. Ubayev, R. Saydullayeva, To'liqsiz gaplar haqida ba'zi bir mulohazalar // O'zbek tili va adabiyoti, 1997- №1.

A. Xojiyev. So'zning morfem tarkibi masalalariga doir // O'zbek tili va adabiyoti, 1998.

Mavzu: Aniqllovchi.

Raja:

1. Aniqllovchi haqida umumiy ma'lumot.
2. Aniqllovchining turlari:
 - a) sifatlovchi va uning ifodalanishi.
 - b) qaratuvchi va uning ifodalanishi.
 - v) izohlovchi va uning ifodalanishi.

1. Aniqllovchi haqida umumiy ma'lumot.

Ikkinchi darajalibo'laklar bosh bo'laklarga bevosita yoki bivosita bog'lanib, ularni aniqlab, to'ldirib, izoxlab keladi. Mayin shabada qo'zg'aldi. Aniqllovchi ikkinchi darajali bo'lak bo'lib, predmetning (keng ma'noda ba'zan belgining) belgisini bildiradigan gap bo'lagidir.

Aniqllovchi o'zi bog'lanib kelgan so'z bilan aniqllovchili birikmani hosil qiladi, ya'ni mazmuni izoxlanayotgan bo'lak aniqlanmishdir. Aniqllovchi predmetning xilma —xil: biror xususiyati, holati, rang —tusi, maza—ta'mi, shakli, hajmi, o'ringa munosabat, paytga munosabat,

harakat tarzidagi, ko'rsatib aniqlash, miqdor—daraja, boshqacha nom berish bilan izohlash, qaramlik kabi belgilarni bildiradi.

Masalan: SHirin olma, osmondagi yulduzlar, yozgi ko'ylak, to'rtta devor, oz so'z, shu yil, yig'ilgan kitob, gumbur — gumbur ovoz, oltin soat kabi. Aniqlovchining predmetning belgisining bildirishdan uning otga bog'lanishi kelib chiqadi (ba'zan aniqlovchi sifat va ravishga xam bog'lama oladi.)

Aniqlovchi borlanib kelgan ot gapda har qanday gap bo'lagi bo'lib kela oladi. Demak, aniqlovchi egaga xam kesimga xam, to'ldiruvchi va xolga tobe bo'lib keladi. Ba'zan aniqlovchi aniqlovchining o'ziga tobe bo'ladi.

Masalan: Yaxshi yigit yurt tuzar (egaga tobe) . Birovning aybiga ko'z quloq bo'lma (to'ldiruvchiga tobe)

Aniqlovchi anglatgan ma'nolari va ifodalanishiga ko'ra har xil so'roqqa javob beradi: qanday?, qanaqa?, qaysi?, qancha?, necha?_nechanchi?, qay daraja? kabi.

Aniqlovchi leksik — semantik va grammatik xususiyatlariga ko'ra uch xil bo'ladi: sifatlovchi, qaratuvchi, izohlovchi.

2. Sifatlovchi.

Predmetning belgi xususiyati, xajmi, shakli, maza — ta'mi rang tusi, miqdor— darajasi, tartibi kabilarni anglatadigan aniqlovchi sifatlovchi deyiladi. Sifatlovchi o'z sifatlanmishiga bitishuv yo'li bilan bog'lanadi. Masalan: Soyning tagidan ko'm — ko'k suv oqib o'tardi.(P.Q.) Olti ming mexanizator uch ming bul'duzerni navbatma — navbat boshqarishni ko'zda tutyapmiz. (J.A.) Asfalt ko'chaning u er — bu erida suv halqob bo'lib yotardi. (O'.H.) Shu payt ichkaridan ship — ship qadam tovushi eshitildi. (O'.Usmonov.)

Sifatlovchi so'z birikmasi bilan xam ifodalanishi mumkin: Muhabbat nimaligini bilmagan, aksincha uni uyat hisoblab kelgan Hoji qizining ichi yonib, tishi kuyib turganini bilmas edi. (Shuhrat.)

3. Qaratuvchi aniklovchi va uning ifodalanishi.

Biror predment yoki shaxsning boshqa biror predmet yoki shaxsga qorashli, tegishli ekanini ko'rsatadigan aniqlovchi qaratuvchi deyiladi. qaratuvchi doimo qaratqich kelishigi shaklida (belgili va belgisiz shaklda) keladi va kimning? nimaning?, qaerning? kabi so'roqlarga javob beradi.

Qaratuvchi belgili shaklda kelganda uning qaratkich kelishigi qo'shimchasi saqlanadi, belgisiz shaklda esa tushib qoladi.

Masalan: 1. U Azizning munosabatida samimiylilikni payqadi. 2.Eringanning oshi pishmas. 3. Beshning boshi bo'lguncha, oltining oyog'i bo'l. 4.Dangasaning saratonda qo'li sovqatar. 5. Borning boshi og'rir Do'qning qorni.

Qaratuvchi, asosan, ot, olmosh xamda otlashgan so'zlar bilan ifodalanadi. Qaratuvchi o'zi bog'langan ot bilan moslashuv munosabatiga kirishadi. Qaratuvchi bog'lanib kelgan so'z doimo ot bo'ladi. Qaratuvchi belgisiz shaklda ham qo'llanadi.

Masalan: Olmos bog'lib yarqirar tog'lar qoyasi.

4. Izohlovchi.

Izohlovchi o'zi bog'langan so'zni boshqacha nom berish yo'li bilan aniqlab izohlab keladi. Izohlovchi, odatda, ot bilan ifodalanib, unvon, kasb, mutaxassislik, qarindoshlik, laqab, taxallus jins, o'xshashlik kabi ma'nolarni bildiradi. Masalan, Professor Asqarova misli yo'q mutaxassis.

Ona —Er, basharga najotsan (N.K). Sho'x qiyqirgan azamat askarlar orasiga Asqar polvon bilan Ali tajang xam suqildi. (O).

Izohlovchi boglanib kelgan so'z izohlanmish deb ataladi. Izohlovchi izoxlanmishdan oldin ham, keyin ham kelishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. U. Tursunov, J. Muxtorov, Sh. Rahmatullayev. Hozirgi o'zbek adabiy tili. T.: O'zbekiston, 1992.
2. A. Nurmanov va boshqalar O'zbek adabiy tilining nazariy sintaksisi. - T.: Fan, 1992.
3. R. Rasulov. So'z valentligi va sintaktik aloqa // O'zbek tili va adabiyoti, 1992.- № 5-6.
4. A. Aliyev, K. Sodiqov O'zbek adabiy tili tarixidan (Universitet talabalari uchun darslik) T.: O'zbekiston, 1994.
5. G'. Abdurahmonov, S. Mamajanov. O'zbek tili va adabiyoti (Oliy o'quv yurti talabalari uchun darslik) T.: O'zbekiston, 1995.
6. F. Ubayev, R. Saydullayeva, To'liqsiz gaplar haqida ba'zi bir mulohazalar // O'zbek tili va adabiyoti, 1997- №1.
- A. Xojiyev. So'zning morfem tarkibi masalalariga doir // O'zbek tili va adabiyoti, 1998.

Mavzu: Hol.

Reja:

1. Hol haqida umumiy ma'lumot.
2. Holning ma'no jihatdan turlari:
 - a) ravish holi;
 - b) payt holi;
 - v) o'rin holi;
 - g) miqdor — daraja holi;
 - d) sabab holi;
 - e) maqsad holi;

1. Hol haqida umumiy ma'lumot.

Ish — harakatning belgisini anglatadigan ikkinchi darajali bo'lak hol deyiladi. Hol ish — harakatning, shu bajarish bilan bog'liq bo'lgan o'rin, payt, sabab, maqsad, miqdor — daraja kabilarni ifodalab, qanday?, qanaqa?, qanday qilib?, qaytarzda?, qaerda?, qaerga?, qaerdan?, qachon?, nima uchun?, qancha? kabi so'roqlardan biriga javob bo'ladi.

Hol ravish bilan, jo'nalish, o'rin — payt, chiqish kelishiklari shaklidagi va ko'makchili ot bilan, sifat, son, taqlid so'z, undovlar bilan, shuningdek, fe'l shakllari va so'z birikmasi orqali ifodalanadi. Masalan: O'tirganlar haxolab kulib yuborishdi. (J. Abdullaxonov.) Tongotarda o'rnimdan turdim. (Ch. Ayt.) Bugun ham bolalar tabiatning ana shu mo'jizasini ko'rish uchun muallimlari boshchiligida geografiyadan sayohatga kelishgan. (S. Karomatov.) Mashina shiddat bilan qaltis tog' yo'lidan uchib ketdi. (O'. H.)

2. Holning ma'no jihatdan turlari.

Hollar ma'nolari jihatdan bir necha turga bo'linadi.

Ravish holi ish — harakatning qay tarzda bajarilishini bildiradi. Masalan: Qurilishdagi hayot g'ildiragi tobora jadal aylanib borardi. (J. Abdullaxonov.)

Ular quvnab — quvnab hol — ahvol so'rashdilar. (As. M.)

Payt holi ish — harakatning bajarilish paytini anglatadi. Masalan: Aziz tajriba maydonidan allamahol keldi. (O'. Usmonov.) Boshqarma tongdanoq arining uyidek g'uvillab yotardi. (As. M.)

O`rin holi ish — harakatning bo`lish, yo`nalish, boshlanish, o`rmini bildiradi. Masalan: Cho`qqida yashashning ta`rifi ulug`, Cho`qqidan olam keng, Cho`qqidan yorur!!! (Shuhrat.) Cheksiz qo`ng`ir dasht ichida bu bir kaftdakkina joyni egallagan, xolos. (Mirm.) Nur bor joyda soya ham bo`ladi-da, qizim. (O`H) Mashinani tez o`ngga burib, yo`lga to`g`riladi, (B, Boyqobilov.)

Miqdor — daraja holi ish — harakatning bajarilish darajasini, shu bajarilish bilan bog`liq bo`lgan miqdorni bildiradi. Masalan: quyosh salgina qaytsa ham issiq sezilib turardi. (Sh.R.) Mehmon oz o`tirar, lekin ko`p ko`rar. (Maqol.) Bu yo`llardan o`tdi ular necha bor. (B. Boyqobilov.)

Sabab holi ish — harakatning bajarilish sababini anglatadi. Masalan: Vazira qo`rqqanidan qalt—qalt titrar edi. (P.q) Negadir, Kamalxonov ham kuldi. (A.q.)

Maqsad holi ish — harakatning bajarilishidagi maqsadni bildiradi. Masalan: Kamalxonov ... o`zini jiddiy ko`rsatish uchun qoshlarini chimirdi. (A.Q.) Atay izlab keldim, oh, qoya, Sen naqadar mag`rur va kibor. (Mirtemir.) Bir yili yozda ... dam olgani kurortga ketdilar. (J. Abdullaxonov)

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. U. Tursunov, J. Muxtorov, Sh. Rahmatullayev. Hozirgi o'zbek adabiy tili. T.: O'zbekiston, 1992.

2. A. Nurmanov va boshqalar O'zbek adabiy tilining nazariy sintaksisi.- T.: Fan, 1992.

3. R. Rasulov. So'z valentligi va sintaktik aloqa // O'zbek tili va adabiyoti, 1992.- № 5-6.

4. A. Aliyev, K. Sodiqov O'zbek adabiy tili tarixidan (Universitet talabalari uchun darslik) T.: O'zbekiston, 1994.

5. G'. Abdurahmonov, S. Mamajanov. O'zbek tili va adabiyoti (Oliy o'quv yurti talabalari uchun darslik) T.: O'zbekiston, 1995.

6. F. Ubayev, R. Saydullayeva, To'liqsiz gaplar haqida ba'zi bir mulohazalar // O'zbek tili va adabiyoti, 1997- №1.

A. Xojiyev. So'zning morfem tarkibi masalalariga doir // O'zbek tili va adabiyoti, 1998.

Mavzu: Gapda so'zlar tartibi.

Tayanch iboralar: Gap, gap bo'laklarining tartibi, odatdagi tartib, o'zgargan tartib (inversiya).

Mavzuga doir muammolar.

1. So'zlar tartibi t'g'risida ma'lumot bering.
2. O'zgargan tartibni tushuntiring.
3. Odatdagi tartibni izohlang.
4. So'z tarkibining o'zgarishi ma'noga ta'sir etishini misollar asosida tushuntiring.

Gap bo'laklarining tartibi o'zbek tilida asosan erkindir. Ularning o'rinlarni almashtirish grammatik holatni ko'pincha o'zgartirmaydi. Masalan: Tush kezlari oftob yelkani qizdiradi. (U. X.) Oftob tush kezlari yelkani qizdiradi.

Bu gaplarda so'zlarning o'rinlarini almashtirish grammatik holatni o'zgartirmagan. Lekin gap mazmuniga ma'lum darajada ta'sir etgan, ya'ni har gal boshqa-boshqa gap bo'lagiga odatdagidan ortiq ahamiyat berilgan. So'z tarkibini o'zgaptirish grammatik holatga ta'sir etishi mumkin. Bunday vaqtda ma'no ham o'zgaradi. Bu hol ko'pincha gap bo'laklarining vazifasi o'rniga belgilanganda yuz beradi.

1. Ega bilan kesimning tartibini o'zgartirsak, ega kesim bo'lib qoladi, kesim ega bo'lib qoladi.

Masalan: Ikki o'n besh - bir o'ttiz. Bir o'ttiz – ikki o'n besh.

2. Sifatlovchi bilan sifatlanmishning tartibi o'zgarsa, sifatlanmish ega, sifatlovchi kesim bo'lib qoladi.

Masalan: Chiroyli bino – Bino chiroyli.

3. Qaratuvchili birikmada qaratuvchi belgisiz bo'lsa, ularning o'rinlarini almashtirsak, qaralmish ega, qaratuvchi kesim bo'lib qoladi. Bu ko'pincha qaralmish ko'makchi otlar bilan ifodalanganda yuz beradi.

Masalan: Institut oldida – Oldida institut. Soy o'rtasi – O'rtasi soy.

O'zbek tilida so'zlar tartibi asosan, erkin bo'lsa ham, uning ma'lum normativ holati bordir. Bu muayyan tartib bo'lib, turli mazmunli gaplarda turlicha bo'ladi. Agar bu muayyan tartib, ya'ni gap bo'laklarning normativ tartibi o'zgarsa, jonli tilda va she'riyatda uchraydi. Inversiya xossasini o'zgargan tarkib deyiladi. O'zgargan tartibda gap bo'laklarining odatdagi tartibi boshqacha bo'ladi. Bunda o'qiyotgan yoki tinglayotgan kishining diqqatini o'rni o'zgartirilgan bo'lakka jalb qilish ko'zda tutiladi. O'zgargan tartibda gap bo'laklari, odatda quidagicha joylashadi.

1. Ega kesimdan keyin keladi, masalan: a) Yashasin tinchlik,
b) Xursandligidan shoshilib qoldi chol.

2. To'ldiruvchi kesimdan keyin kelsa, masalan: a) To'xtat suvni!

3. Vaziyat holi fe'l – kesimdan keyin keladi, masalan; Mayin shamol esadi gir-gir. O'zbek tilida ega sostavi gap boshida keladi, oxirida esa kesim keladi. Ikkinchi darajali bo'laklar asosan, shular orasiga joylashadi. Bunday tartib oddiy xabar mazmundagi gaplarda bo'ladi. Har bir gap bo'lagiga nisbatan tartib quyidagicha bo'ladi:

1. Ega odatda gapning boshida keladi: Dolimov bu gaplarni yurakdan aytdi. Yoyiq gapda ega ba'zan kesim oldida ham keladi. Bunday holatda uning gapda tutgan o'rni yanada ortdi. Masalan: Shu dam Malohatga qadimiy Sharq bozorlarini, serqatnov ko'chalarini eslatdi. Ba'zan gapning oxirida ham keladi. Bu vaqtda undan oldin kelgan gap bularga odatdagidan ortiq ahamiyat berilgan bo'ladi.

Masalan: Arslonqulning yo'lini to'sib gapirdi chol! (O).

2. Kesim odatda gapning oxirida keladi. Masalan: Daryo uzoqdan tovlanib ko'rinar edi.

3. Vositasiz to'ldiruvchi ko'pincha fe'l kesim oldida keladi. Masalan: Dilshod kimningdir kuzatib turganini payqagan edi. Bu tartib o'zgarishi ham mumkin. Ba'zi hollarda to'ldiruvchidan boshqa bir bo'lakka odatdagidan ortiq ahamiyat berilgan bo'ladi. Masalan: Zamirani ko'm-ko'k dalada dars tayyorlab o'tirgan holatda uchratdim. Vositali to'ldiruvchilar ham, odatda, kesim oldida keladi. Agar kesim oldida vositasiz to'ldiruvchi bo'lsa, vositali to'ldiruvchi undan oldin keladi. Masalan: O'qituvchi uyga berilgan vazifani hammadan so'rab chiqdi. Vositali to'ldiruvchi ba'zan gapning oxirida keladi. Bunda ham unga e'tibor berilgan bo'ladi. Masalan: Men hech narsaga tushunmadim bu gaplaringdan.

4. Hol asosan, kesimdan oldin keladi. 1. Payt holi, odatda, gap boshida, ba'zan egadan keyin, ya'ni kesimga oid so'zlardan oldin yoki kesim oldida keladi. Masalan: 1. Kecha yosh xavaskorlar to'plandilar. 2. Cho'ponlar tong otishi bilan qo'ylarini Samarqandga haydab ketdilar. (S.A.) 3. Hasanali Otabekda shu vaqtgacha ko'rinmagan qiziq bir holatga besh-olti kundan beri ajablanar edi. (A.Q.) Payt holi ba'zan gapning oxirida keladi. Masalan: Suvni tekis ichadigan yo'sinda jo'yak oldirasan, keyin. (O.)

2. O'rin holi, odatda, fa'l kesim oldida keladi. Masalan: Bu kuylarni Farg'onaning Marg'ilonida eshitdim. (A.Q.)

3. Ravish holi, odatda, fe'l kesim oldida keladi. Masalan: Bizning jamoa bu yilgi ishga astoydil kirishdilar.

4. Sabab va maqsad hollari kesimdan oldin, gapning boshida, ichida keladi. Masalan: Soch oldirish uchun Yo'lchi chopiqqa chiqmasdan oldin guzarga chiqdi. (O). Men Azizning xatosini bo'yniga qo'yish uchun necha kundan beri kuyib pishaman. (A.M.)

5. Miqdor-daraja hollari ham odatda kesim oldida keladi. Masalan: Biz yosh xavaskorlar to'garagi a'zolarining uzoq kuzatib turdik.

6. Aniqllovchi aniqlanmishdan oldin keladi. Agar bu tartib o'zgartirilsa, ularning grammatik holati, ma'nolari ham o'zgaradi. Sifatlovchi birdan ortiq bo'lsa, ularning tartibi quyidagicha bo'ladi:

1. O'qiyotgan yosh bola, Guvirlayotgan zo'r shamol.

2. Son (yoki miqdor bildiruvchi boshqa soʻz)] sifat] ot: beshta mevali daraxt, koʻpgina yangi binolar.
3. Olmosh] son] ot: mana shu bitta daftar, oʻsha oʻnta kitob, mana bu oʻn talaba.
4. Oʻxshatish bildiruvchi soʻz] sifat] ot; senday qahramon kishi, Zamiradek sergʻayrat qiz.
5. Sifatdosh] son] ot; oʻqiyotgan oʻnta talaba uch qiz.

Nazorat uchun savollar:

1. Gap boʻlamlari tartibi haqida maʼlumot bering.
2. Odatdagi tartibni tushuntiring.
3. Oʻzgargan tartib (inversiya).

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Oʻzbek tili (Universitet va pedagogika institutlari talabalari uchun). Qayta ishlangan 2- nashri.- T.: Oʻzbekiston, 1992.
2. A.Nurmatov va boshqalar. Oʻzbek tilining nazariy sintaksisi.- T.
3. R.Rasulov. Soʻz valentligi va sintaktik aʼloqa // Oʻzbek tili va adabiyoti, 1992.- № 5-6.
4. A.Aliev, K. Sodiqov. Oʻzbek adabiy tili tarixidan. (Universitet talabalari uchun darslik) T.: Oʻzbekiston, 1994.
5. B.Abdurahmonov, S.Mamajanov. Oʻzbek tili va adabiyoti. (Oliy oʻquv yurti talabalari uchun darslik).- T. : Oʻzbekiston, 1995.
6. M. Mirtojiyev. Mantiqiy predikatning ega vazifasida kelishi // Oʻzbek tili va adabiyoti, 1995.- № 2.
7. F.Ubayeva, R. Saydullayeva. Toʻliqsiz gaplar toʻgʻrisida baʼzi bir mulohazalar // Oʻzbek tili va adabiyoti, 1997.-№ 1.
8. A. Xoʻjiyev. Soʻzining morfem tarkibi masalalariga doir // Oʻzbek tili va adabiyoti, 1998.

Mavzu: Gapning uyushiq boʻlamlari.

Reja:

1. Gapning uyushiq boʻlamlari haqida maʼlumot.
2. Gap boʻlamlarining uyushib kelishi (gapning bosh boʻlamlarining uyushib kelishi va ikkinchi darajali boʻlamlarning uyushib kelishi)/
3. Uyushtiruvchi boʻlamlarni oʻzaro bogʻlovchi vositalar,
4. Uyushiq boʻlakli gaplarda umumashtiruvchi boʻlamlarning qoʻllanishi.
5. Uyushiq boʻlakli gaplarda tinish belgilarining qoʻllanilishi.

Mavzuga doir masalalar.

1. Gapning uyushiq boʻlamlari deb nimaga aytiladi?
2. Uyushgan va uyushmagan aniqlovchilarning bir-biridan farqini izohlang.
3. Uyushgan boʻlaklarda kelishik qoʻshimchalarining qoʻllanishini tushuntiring.
4. Uyushiq boʻlaklarda umumashtiruvchi soʻzning qoʻllanishini izohlang.
5. Uyushiq boʻlaklarda ikki nuqta, tire va nuqtali vergulning qoʻllanilishi ayting.

Tayanch iboralar: Bosh boʻlaklar uyushuvi, ikkinchi darajali boʻlaklar, uyushuvi, bogʻlovchilar, umumashtiruvchi soʻz, tinish belgilari.

1.Gapning uyushiq boʻlamlari haqida maʼlumot.

Gapda biror soʻroqqa javob boʻlib, bir xil sintaktik vazifani bajarib, sanash ohangi yoki teng bogʻlovchilar yordamida birikkan gap boʻlamlari gapning uyushiq boʻlamlari deyiladi.

Uyushiq gap bo`lak komponentlari o`zaro teng aloqada bo`lib, bir butunlikni hosil qilib, yaxlit holda bir umumiy bo`lakka bog`lanib keladi. Masalan: Bu yumshoq, mulohazali odamga yotoqxonadagilarning mehri oshib qolgan edi.(As.M.) Bu gapda yumshoq mulohazali uyushtiruvchi komponentlari o`zaro teng aloqada, qanday? degan so`roqqa jvob bo`lib, odamga so`ziga bog`lanib kelgan.

2.Gap bo`laklarining uyushib kelishi.

Har bir gap bo`lagi uyushib kelishi mumkin, chunonchi:

Ega: Tumanlik qo`ynida jimgina mudragan tonglar, ilk sovuq og`ushida junjikkan oqshomlar boshlanadi.(O`.H.)

Kesim: U boshqa brigadalarga bosh bo`lganlarni ko`rdi.kuzatdi. (J. Abdullaxonov.)

Vositasiz va vositali to`ldiruvchi:qor sovuti qo`llarimni va yonoqlarimni, peshonamni va burun uchini yalab tursa—da, menga juda yoqimli tuyuladi.(O.)

Sifatlovchi va qaratuvchi: Oydin, osuda bir tun edi.(O.Yo-) Yoshlar va keksalar diliga orom va quvonch bag`ishlagan lola sayili yaqindagina bo`lgan edi.(Sh.R.)

Ba`zan sifatlovchilar uyushmagan xolda ham qo`llanadi. Masalan:Ufqqacha cho`zilgan qirmizi lolazor rang — barang tovlanmoqda. (J. Abdullaxonov.)

Bu misolda ufqqacha cho`zilgan va qirmizi sifatlovchilari uyushmagan, chunki, ular predmet belgisini turli tomondan aniqlagan.

Hollarga Odamlar orasida Yunus Rajabiy ham bor,odamlar uning maqomini jim, qilt etmay tinglashardi.(Mirm.) Zahmatli chog`larda, og`ir yo`llarda Asti onasini unutmadi u.(M.Sh.)

Turli grammatik formantlar (kelishik, egalik, ko`plik affikslari, ko`makchilar, to`liqsiz va ko`makchi fe`llar kabi), birinchidan, uyushuvchi komponentlarning har biriga qo`shilib kelishi, ikkinchidan, faqat, oxirgisiga qo`shilib,oldingilari uchun xam taalluqli bo`lishi mumkin.

Gapning uyushiq bo`laklari o`zaro teng bog`lovchilar, shu vazifadagi ba`zi bir yuklama va ko`makchilar orqali bog`lanishi mumkin. Masalan: Aldash hamda yolvorishning keragi yo`q.(S.Ahm.) Tog`lar goh chap tomoningda, goh o`ng tomoningda paydo bo`lib qoladi. (O`.H.) Shu payt hovliga Davron aka bilan Iskandarov kirib kelishdi.(Yo.Sh.) Uyushiq bo`lakli gaplarda ba`zan umumlashtiruvchi birliklar xam qatnashadi. Uyushiq qismlarni jamlab, yaxlitlab ko`rsatadigan so`z va so`z birikmalari umumlashtiruvchi birliklar deyiladi. Masalan: O`tovda uch kishi: Abubakir, Sadabek va men qoldim.(Ch.Ayt.)

Bu gapda umumlashtiruvchi birlik so`z birikmasi (uch kishi) biln ifodalangan.

Umumlashtiruvchi birliklar uyushiq bo`laklaridan keyin yoki oldin kelishi mumkin.

Uyushiq bo`laklardan keyin kelgan umumlashtiruvchi birliklar yakunlash, xulosalash kabi ma`noni anglatadi, uyushiq bo`lakdan oldin qo`llanganda esa umumlashtiruvchi birliklar ma`nosi uyushiq bo`lakdan oldin qo`llanganda esa umumlashtiruvchi birliklar ma`nosi uyushiq bo`laklar tomonidan izoxlanishi anglashilib turadi.

Uyushiq bo`laklar o`zaro bog`lovchisiz(faqat sanash oxangi bilan): zidlovchi, shuningdek, takrorlanuvchi boglovchilar, — u, (— yu), — da yuklamalari yordamida birikkanda, ular orasiga vergul qo`yiladi. Masalan: Bu ko`rkam shaharcha, bu qurilishlar, keng ko`lamdagi bu ishlar osonlikcha bunyod bo`lgani yo`q.(O.Yo.)

Umumlashtiruvchi birlik uyushuvchilardan oldin kelsa, shu birlikdan so`ng ikki nuqta qo`yiladi: Hamma erda: uylarda, ko`chalarda ivirsib yotgan xazon yuzi ertalab qirovdan.. . oppoq bo`lib qoladi. (Oybek.)

Umumlashtiruvchi birlik uyushuvchilardan keyin kelganda, undan oldin tire qo`yiladi: Osmonda, daraxtlarda, toshlarda, bo`gotlarda — hamma yerdan chumchuqlar chirqillashadi. (M.Ism.)

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. O`zbek tili (Universitet va pedagogika institutlari uchun) qayta ishlangan 2-nashri - T.:O`zbekiston, 1991.

2. A.Nurmatov va boshqalar. O`zbek tilining nazariy sintaksisi.- T.:Fan,1992.

3. R.Rasulov. So`z valentligi va sintaktik a`loqa //O`zbek tili va adabiyoti, № 5-6.- 1992.

4. A.Aliyev, K.Sodiqov. O'zbek adabiy tili tarixidan. (Universitet talabalari uchun darslik) - T.:O'zbekiston, 1994.

Mavzu: Gapning ajratilgan bo'laklari.

Reja:

1. Ajratilgan bo'laklar haqida umumiy ma'lumot.
2. Ajratilgan bo'laklarning turlari:
 - a) ajratilgan aniqlovchilar;
 - b) ajratilgan izoxlovchi;
 - v) ajratilgan hollar;
 - g) ajratilgan to'ldiruvchilar.
 - d) ajratilgan hollar

Mavzuga doir muammolar.

1. Ajratilgan bo'laklar xususida to'xtaling.
2. Ajratilgan to'ldiruvchilarning odatdagi to'ldiruvchidan farqini ayting.
3. Aniqlovchilarqaysi holatlarda ajratiladi?
4. Holni qaysi turlari ajratiladi?
5. Ajratilgan izoh bo'laklarda tinish belgilarining qo'llanishini tushuntiring.

Tayanch so'zlar:

Ajratilgan izox bo'lakli gaplar, ajratilgan to'ldiruvchi, aniqlovchi, hol, so'roqlar o'rni.

3. Ajratilgan bo`laklarda tinish belgilarining ishlatilishi.

Sodda gap tarkibida ayrim hollarda ajratilgan bo`laklar xam qatnashi shimumkin Ajratilgan bo`laklar odatda o`zlari aloqador bo`lgan so`zlarning ma`nosini izoxlab, bo`rtgarib, aniqlashtirib keladi va boshqa bo`laklardan maxsus to`xtam (pauza) bilan ajratilib, mantiqiy urg`u oladi.

Masalan: Saida, qo`sh yonkoqning tagida, oppoq qorga ko`milib uzoq turdi. (O.Yoqubov.) Ish qanchalik qiyin bo`lmasin, biz ayniqsa eshlar ishtiyoq bilan, g`ayrat va shijoat bilan ishlardik.

Birinchi gapda «qo`sh yong`oqning tagida» o`zidan oldin kelgan «Saida» So`zining ma`nosini, ikkinchi gapda «yoshlar» o`zidan oldin kelgan «biz» so`zining ma`nosini izoxlab, asosiy gap bo`laklardan to`xtam (pauza) bilan ajratilgan.

Ajratilgan bo`laklarning xar ikkisida ham oddiy gap bo`lagi qo`llangan. Ajratilgan bo`laklar oborot shaklida ham bo`lishi mumkin.

Masalan: Vohid Mirobidov —ku uning achchiq kinoyalarini kulgiga olib, qulog`ining yonidan o`tkazib yubordi. (O.Yoqubov.) Keltirilgan gapda «uning achchiq kinoyalarni kulgiga olib ravishdosh oboroti kesimdan anglashilgan ish harakatning qanday bajarilayotganini ta`kidlab, alohida ohang yordamida ajratilgan.

Demak, ajratilgan bo`laklar ikki xil shaklda: 1) oddiy gap bo`lagi shaklida; 2) oborot shaklida bo`lishi mumkin.

Ajratilgan bo`laklar qaysi gap bo`lagiga oid ekanligiga ko`ra quyidagi turlarga bo`linadi:

- 1) Ajratilgan aniqlovchilar.
- 2) Ajratilgan izohlovchilar.
- 3) Ajratilgan to`ldiruvchilar.
- 4) Ajratilgan hollar.

Ajratilgan aniqlovchilar

Ajratilgan aniqlovchilar ikki xil: ajratilgan sifatlovchi, ajratilgan qaratuvchi.

Ajratilgan sifatlovchi predmentning belgisini bo`rttirib ko`rsatish uchun ajratiladi.

Masalan: Muxtor, yalangbosh, majnun tollar tagida aylanib, xayol surib yuradi. (S.Soliev.) gapda «yalangbosh» sifatlovchi shaxsning «Muxtor» belgisini bo`rttirib berish uchun sifatlanmishdan keyin keltirilgan.

Ajratilgan qaratuvchi. Bunda qaratuvchi o`zidan oldin kelgan boshqa bir qaratuvchini izoxlash, aniqlashtirish yo`li bilan ajratiladi. Masalan: To`g`ri, uning yozganlari, aniqrog`i, mashinistkaga aytib turib, qog`ozga tushirganlarining aksari mazmunan sayoz bo`lar, oldingilarini takrorlardi. (T.Po`lat.)

Bu gapda «aniqrog`i» mashinistkaga aytib turib, qog`ozga tushirganlarining aniqlovchi, o`zidan oldin kelgan yozganlari so`zining ma`nosini izoxlab, bo`rttirib kelgan.

Ajratilagn izoxlovchilar.

Izoxlovchilar ko`pincha ajratilgan bo`ladi, Bunda ular izoxlanmishdan keyin kelib, mahsus intonatsiya bilan talaffuz qilinadi. Masalan: Siz, Sunnatillo, o`zingiz juda aqlli, o`zi uzoqni ko`radigan odamsiz. (S.Soliev.) Ko`rimsizgina jangchi —Ali tajang kelib o`zbekcha cho`kkaydi. (Oybek.)

Ajratilagn xollar. Ajratilagn hollar shakllari jihatdan ikki xil bo`ladi:

- 1) Oborot shaklidagi ajratilagn hollar.
- 2) Oddiy gap bo`lagi shaklidagi ajratilagn hollar. Oborot shaklidagi ajratilgan hollar o`z navbatida uchga bo`linadi:

- 1) Ravishdosh oboroti shaklidagi ajratilgan hollar.
- 2) O`xshatish oboroti shaklidagi ajratilgan xollar.
- 3) Ko`makchili qurilma oboroti shaklidagi ajratilgan xollar.

Ravishdosh oboroti shaklidagi ajratilagn xollar. Ravishdosh o`ziga oid so`zlar bilan kengayib keladi va bunday qurilma ravishdosh oboroti deb yuritiladi, Ravishdosh oboroti, odatda, ajratilgan bo`ladi. Masalan: Odamlar qopdan to`kilgan yong`oqday gurr etib, hamma vagonlardan baravariga perronga yopirilishda. (T.Po`lat.)

Ravishdosh oboroti shaklidagi ajratilgan hollar ish — xarakatining bajarilish holatini, paytini, shartini, sababini va shu kabi ma`nolarni ifoda etadi.

O`xshatish oboroti shaklidagi ajratilgan hollar. — day, —dek qo`shimchalarini olib kelgan so`zlar ham kengayib ajratilishi mumkin. Masalan: Bu shaxarda, boshqa shaxarlarda bo`lganidek, xiyobonlar ko`p.

Ko`makchili qurilma oboroti shaklidagi ajratilgan hollar. Ko`makchili qurilma shaklidagi hollar kesimdan uzoqd^a kelib, o`zlariga oid so`zlar bilan kengayib, gapning boshqa bo`laklaridan ajratish mumkin. Bunda qurilma qarshi, singari, kabi, tufayli, yarasha, holda kabi qo`shimchalar bilan shakllanadi. Masalan: Nozik, oppoq bilagini daraxtga cho`zgan xolda, qorayib pishgan shotutdan og`ziga tashlar ekan, tebrandi. (G`.G`ulom.)

Ko`makchi qurilma oboroti shaklidagi ajratilgan hollar turli holatni, o`xshatishni ifodalaydi.

Oddiy gap bo`lagi shaklidagi ajratilgan hollar o`zidan oldin kelgan holning ma`nosini izohlaydi. Uning so`rog`i, vazifasi izohlanayotgan holning so`rog`i va vazifasiga teng bo`ladi. Bunda qo`shimcha payt va o`rin holari ajratiladi.

Ajratilgan o`rin holi: qishloqdan bir qir narida — behisob qizg`aldoqlar dalani qizartirib, xiyol chayqalib turgan joyda —Xulkar o`t o`rardi. (P.Qodirov.)

Ajratilgan payt holi: ertaga, yigit, seni kuzatganim zaxoti orqamga qaytaman.

Ajratilgan to`ldiruvilar.

Ajratilgan to`ldiruvchilar shakllanishiga ko`ra ikki xil bo`ladi:

1) Ko`makchili qurilma oboroti shaklidagi ajratilgan to`ldiruvchilar.

2) Oddiy gap bo`lagi oboroti shaklidagi ajratilgan to`ldiruvchilar.

Ko`makchili qurilma oboroti shaklidagi ajratilgan to`ldiruvchilar kesimdan uzoq kelib, qaraganda, ustiga, singari, bilan, birga va ish kabi ko`makchilar yordamida shakllanadi.

Oddiy gap bo`lagi shaklidagi to`ldiruvchilar, o`zidan oldin kelgan to`ldiruvchinig ma`nosini izohlaydi, unga aniqlik kiritadi. Bunda vositasiz to`ldiruvchi xam, vositali to`ldiruvchi ham ajratilishi mumkin. Masalan: Sizga, o`rta bo`yli qizga, atlas ko`ylak juda yarashibdi. (Yo.Shukurov.)

Ajratilgan bo`laklarda tinish belgilarining ishlatilishi.

Ajratilgan bo`laklarda tinish belgilari quyidagicha ishlatiladi:

1) Ajratilgan bo`laklar, odatda, vergul bilan ajratiladi. Masalan: Biz, tibbiyot xodimlari, xalqqa jon — dildan xizmat qilamiz. (S.Soliyev.)

2) Ajratilgan bo`laklarning tarkibi keng bo`lsa yoki uning ichida verguli bo`lsa, bunday ajratilgan bo`laklar tire bilan ajratiladi: Masalan: Kotiba qiz — o`rta bo`yli, oq yuzli, yonoqlari loladay, qop —qora qosh —ko`zli ayol choynakda choy ko`tarib kirdi. (S.Soliyev.)

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. O`zbek tili (Universitet va pedagogika institutlari uchun) qayta ishlangan 2-nashri - T.:O`zbekiston, 1991.

2. A.Nurmatov va boshqalar. O`zbek tilining nazariy sintaksisi.- T.:Fan,1992.

3. R.Rasulov. So`z valentligi va sintaktik a`loqa //O`zbek tili va adabiyoti, № 5-6.- 1992.

4. A.Aliyev, K.Sodiqov. O`zbek adabiy tili tarixidan. (Universitet talabalari uchun darslik) - T.:O`zbekiston, 1994.

Mavzu: Gap bo`laklari sanalmaydigan so`z va birikmalar.

Reja:

1. Gap bo`laklari sanalmaydigan so`z va birikmalar xaqida umumiy ma`lumot.
2. Undalma.
3. Kirish so`z va kirish birikma.
4. Kiritma gap.

Mavzuga doir muamollar:

- 1.Undalmani gap bilan grammatik bog`lanmasligini izohlang.

2. Kirish so'z nima uchun gap bo'lagi vazifasida qo'llanmaydi?
3. Kirish gap asosiy fikrni iroda etuvchi gapdan qaysi jihati bilan farq qiladi, misollar asosida tushintiring.
4. Undalma, kirish so'z va kirish hamda kirish gaplarni qo'llanadigan tinish belgilar xususida to'xtaling.

Tayanch so'zlar:

Undalma, kirish so'z, kirish gap,
qo'llanish o'rni, bog'lanish,
vazifa.

1. Gap bo'laklari sanalmaydigan so'z va birikmalar haqida umumiy ma'lumot.

Gap tarkibida ba'zan shunday so'z va birikmalar (hatto gaplar) uchraydiki, ular mazkur gap yoki uning biror bo'lagi bilan grammatik jihatdan emas, faqat mazmun jihatdangina aloqaga kirishadi (bog'lanadi.) Undalma, kirish so'z, kirish birikma va kiritma gap ana shunday xususiyatga ega.

2. Undalma.

Undalma so'zlovchining nutqi qaratilgan shaxs (yoki predmet)ni anglatib, bosh kelishik shaklidagi ot va otlashgan so'z bilan ifodalanadi. Bu jihatdan undalma egaga o'xshaydi, ammo u gapning kesimi bilan grammatik jihatdan bog'lanmasligi, o'ziga xos undash intonatsiyasiga egaligi bilan farq qiladi. Masalan: Kamtarlik qilma, Yigitali, buni o'zingizning halol mehnating tufayli olding. (S.Karomatov.)

Undalma ba'zan so'z birikmasi orqali ifodalanishi mumkin. Masalan: Men o'zim faqat amaliyotchi muxandisman, xurmatli do'stim Fayzullo.. (As.M.) Undalma gap boshida, o'rtasida, oxirida kelishi mumkin. Masalan: Do'stim, menga yaxshi maslaxatlar berdingiz. (A.q.) Tek tur, Gulsari, tek tur, jonivor, — der edi xo'jayini. (Ch.Ayt.) To'tri, vatangadolikdan og'ir dard yo'q, do'stim. (Shuhrat.) Yozuvda undalma gapning boshqa bo'laklaridan vergul bilan ajratiladi: gapning boshida kelsa, undalmadan so'ng, gapning oxirida kelsa, undalmadan oldin, gapning ichida kelsa, har ikki tomondan vergul qo'yiladi.

Undalma kuchli his — hayajon bilan aytilsa, undan so'ng undov belgisi qo'yiladi: Kechir meni! Nodon, ko'zi ko'r, toshmehr dadangni kechir qizim! (Yo.Sh.)

3. Kirish so'z va kirish birikma.

So'zlovchining o'zi bayon etayotgan fikrga bo'lgan turli munosabatni bildiruvchi so'z va so'z birikmasi kirish so'z yoki kirish birikma deyiladi.

Kirish so'z, kirish birikma mazmunan butun bir gapga yoki uning biror bo'lagiga tegishli bo'lib, so'zlovchining gumon, shubxa, ishonch, tasdiq, taajjub, shodlik, eslatish kabi munosabatlarini, fikrning kimga qarashlilikini, tartibini ifodalaydi.

Kirish so'z ko'pincha modal so'zlar bilan, kirish birikma esa so'z birikmasi orqali ifodalanadi. Masalan: Bularning hammasi endilkda orqada qolib ketgan gaplar edi, albatta. (Ch.Ayt.) Umuman, ezgu ishning kechi yo'q. (O.Muxtorov.) Xullas, cho'lga shiddat bilan xamla qilayotgan to'fon kundan — kunga kuchayardi. (J.Abdullaxonov.) Darvoqe, Anvarga ko'p mexnatim singgan. (A.Q.)

4. Kiritma gap,

So'zlovchining asosiy fikr ichida yo'l — yo'lakay aytilgan fikrini anglatuvchi gap kiritma gap deyiladi. Kiritma gap o'zi kiritilgan gapning biror bo'lagiga mazmunan aloqador bo'lib, maxsus talaffuz bilan ajratiladi. Masalan: Otaqo'zi darvozasidan kirib keldi — yu, to'g'ri quduhqa o'tib, salkam bir paqir (Oliya buni o'z ko'zi bilan ko'rdi suv ichdi. (O.Yo.)

Foydalangan adabiyotlar

1. O'zbek tili (Universitet va pedagogika institutlari uchun) qayta ishlangan 2- nashr.- T.:O'zbekiston, 1991.

U. Tursunov, J. Muxtorov, Sh. Rahmatullayev. Hozirgi o'zbek adabiy tili.- T.:O'zbekiston, 1992.

2. A. Nurmonov va boshqalar. O'zbek tilining nazariy sintaksisi. -T.:Fan, 1992.

3. R. Rasulov. So'z valentligi va sintaktik aloqa// O'zbek tili va adabiyoti, 1992.-№ 5-6.

4. A.Aliyev, K. Sodiqov. O'zbek adabiy tili tarixidan. (Universitet talabalari uchun darslik).-T.: O'zbekiston, 1994.

5. G'. Abduraxmonov, S. Mamajonov. O'zbek tili va adabiyoti.(Oliy o'quv yurti talabalari uchun darslik).- T.: O'zbekiston,1995.

6. M. Mirtojiyev. Mantiqiy predikatning ega vazifasida kelishi.// O'zbek tili va adabiyoti,1995.- №2.

7. F.Ubayeva, R. Saydullayeva. To'liqsiz gaplar to'g'risida ba'zi bir mulohazalar// O'zbek tili va adabiyoti, 1997.- №1.

Mavzu: Bir bosh bo`lakli gaplar.

Reja:

1. Bir bosh bo`lakli gaplar, uning turlari
 - 1). Egasiz bir bosh bo`lakli gaplar;
 - 2) Kesimsiz bir bosh bo`lakli gaplar.
2. Egasiz bir bosh bo`lakli gaplar, uning turlari:
 - 1) Egasi topiladigan bir bosh bo`lakli gaplar;
 - 2) Egasi topilmaydigan bir bosh bo`lakli gaplar;
3. Kesimsiz bir bosh bo`lakli gap: nominativ gap.

Mavzuga doir muamollar:

1. Ikki tarkibli gaplarni tushintiring.
2. Egasi topiladigan gapdan misollar asosida izoxlang.
3. Bir tarkibli gaplar va ularning turlarini ayting.
4. Nominativ gapni o'ziga xos tomonlarini gapiring.
5. Bo'laklari ajiralmaydigan gaplar deb qanday gaplarga aytiladi?
6. To'liq va to'liqsiz gaplarni o'zaro farqli tomonlarini izoxlang.

Tayanch iboralar.

Ikki tarkibli va bir tarkibli gap, egasi topilmaydigan gap, egasi topiladigan gap, nominativ gap, to'liq gap va to'liqsiz gap, so'z gap.

1. Bir bosh bo`lakli gaplar, uning turlari.

Gapning grammatik asosini bosh bo`laklar— ega va kesim tashkil etadi.

Sodda gaplar grammatik asosning tarkibiga ko`ra ikkiga bo`linadi; ikki bosh bo`lakli gaplar va bir bosh bo`lakli gaplar. Ikki bosh bo`lakli gaplarda gapning grammatik asosi ega ham, kesim ham mavjud bo`ladi. Masalan: Men sizni o`z qizimdan a`lo ko`rardim. (O.).

Bir bosh bo`lakli gaplarda gapning grammatik asosi bir bosh bo`lak tarkibidan, ya`ni yo ega va unga oid so`zlardan; yo kesim va unga oid so`zlardan tuziladi. Masalan: Otamning ham o`zimning qanday fikr va maslik kishisi ekanligimizni aytib o`tmoqchi bo`laman. (A.qodiriy.) Tong, Hamma dalaga chiqdi. (O)

Bir bosh bo`lakli gaplarda gapning ega va kesim yashirinmaydi, predikativlik bir bosh bo`lak orqali ifodalanadi, ya`ni ega ifodalangan bo`lsa, kesimning mazmuni eganing mazmuni orqali bilinadi yoki kesim ifodalansa, eganing mazmuni kesimning mazmunidan anglashilib turadi.

Bir bosh bo`lakli gaplar bosh bo`laklari qaysi biridan tashkil topishiga ko`ra ikki guruxga bo`linadi:

1) egasiz bir bosh bo`lakli gaplar;

2) kesimsiz bir bosh bo`lakli gaplar. egasiz bir bosh bo`lakli gaplar faqat kesim tarkibidan iborat bo`ladi, ega qatnashmaydi: Dam ochaman qulochimni Kumush suvga. Dam boqaman mendek chopgan Sho`h oxularga. (G`ayratyiy.)

Kesimsiz bir bosh bo`lakli gaplar faqat ega tarkibidan iborat bo`ladi, kesim qatnashmaydi: Go`zal bog`. Unda quyosh va engil shamolning, gullar va maysalarning quvnoq o`yini kun bo`yi davom etadi. (O.)

2. Egasiz bir bosh bo`lakli gaplar, uning turlari.

Egasiz bir bosh bo`lakli gaplar kesim tarkibidan iborat bo`ladi, ega bo`lmaydi. Bunday gaplarda kesim orqali xarakatning bajaruvchi shaxsini topib bo`ladi yoki topib bo`lmaydi. Shunga ko`ra egasiz bir bosh bo`lakli gaplar ikki xil: egasi topiladigan gap va egasi topilmaydigan gap.

Egasi topiladigan gaplarda ega qatnashmasa xam, lekin uni gapning kesimidan anglab olish mumkin. Bunday gaplarda asosiy diqqat bajaruvchi shaxsga emas, balki harakatga qaratilgan bo`ladi. Gapning kesimi, asosan, fe`l bilan ifodalanadi.

Egasiz gaplarning shunday turlari bor: a) shaxsi aniq gap; b) shaxsi noaniq gap; v) shaxsi umumlashtirilgan gap, g) shaxsiz gap. Shaxsi aniq gap. Kesimi asosan, fe`l bilan ifodalanib, xarakatni bajaruvchi shaxsi aniq ko`rsatib turadigan bir bosh bo`lakli gapga shaxsi aniq gap deyiladi.

Shaxsi aniq gapning kesimi vazifasida kelgan so`z tarkibidagi tuslovchi qo`shimchalar ekaning qaysi shaxsda ekanligini aniq ko`rsatib turadi. Bu qo`shimchalar eganing I va II shaxsga oidligini bildiradi. Masalan: Bolaligimning beg`ubor betashvish yillarini qo`msadim. (A.Qodiriy.)

Shaxsi aniq gapning kesimi ko`pincha ijro maylidagi hamda buyruq — istak, shart — istak maylidagi fe`llar bilan ifodalanadi: qo`shiq deb yozdim yurak unlarini. O`ylab qaragam, mulohaza qilib ko`rsam, sizning o`zingiz, qo`shiq ekansiz. Bilmaymiz, qachonlardan beri yurakda yashirin edi bu tuyg`u. Uni kurashib, iztirob chekib ham yurakdan chiqarib tashlay olmadim. (M.Qoriyev.) Keldi ochilur chog`ing, o`zliging namoyon qil, parchalab kishanlarni xar tomon parishon qil. (H. Hamza.)

Shaxsi aniq gapning kesimi ot kesim xam bo`lishi mumkin: Uch farzandning onasiman kabi shaxsi noaniq gap. Kesimi fe`l bilan ifodalanib, shaxsni aniq ko`rsatmaydigan bir bosh bo`lakli gap shaxsi noaniq gap deyiladi. Shaxsi noaniq gapning kesimi odatda , III shaxs shaklidagi aniq fe`llardan bo`ladi, lekin shunga qaramay, bajaruvchi shaxs — kesimdan anglashilgan xarakatning bajaruvchisi aniq bo`lmaydi. Demak, bunda grammatik shaxs aniq bo`lsa ham, u konkret shaxsni anglatmaydi. Bugungi majlisda shu masalani ko`tariladilar.

Shaxsi umumlashgan gap.

Kesimi fe`l bilan ifodalanib, ma`no jixatdan umumga qaratilgan bir bosh bo`lakli gapga shaxsi umumlashgan gap deyiladi.

Shaxsi umumlashgan gaplardan anglashilgan ish — xarakat grammatik jixatdan ma`lum bir shaxsga oid bo`lsa ham, mazmun jihatidan hammaga, umumga qarashli bo`ladi.

Masalan: YAxshi bo`lsang, o`zarsan. Yomon bo`lsang, o`zarsan. (Maqol.) Bugungi ishni ertaga qo`yma. (Maqol.) Tinchlik uchun kurashaylik.

Shaxsi umumlashgan gapning kesimi ko`pincha fe`lning III shaxsi buyruq — istak maylidagi shakl bilan qo`llanadi I va II shaxsdagi fe`llar bilan kam ifodalanadi.

Shaxsi umulashtirilgan gapni kesimi ijro mayli va shart — istak maylidagi fe`llar bilan ham ifodalanish mumkin

Masalan; Bilmaganni bildim dema, qilmagani qildim dema, (Maqol) Olim bo`lsang, olam seniki. (Maqol)

Maqollar ko`proq shaxsi umumlashgan gap shaklida bo`ladi.

Egasi topilmaydigan gaplarda kesimi orqali harakatni bajaruvchi shaxsni egani topib bo`lmaydi, ega umuman qatnashmaydi. egasi topilmaydigan bunday gap shaxssiz gap deb yuritiladi.

Shaxssiz gapning kesimi uchinchi shaxs shaklidagi fe`l bilan ifodalanib, ko`pincha tarkibli tarzda keladi. Shaxssiz gapning kesimi quyidagicha ifodalanadi;

a) fe'lining ravishdosh shakli va bo'ladi, bo'lmaydi so'zlari bilan; (Ilmni mehnatsiz egallab bo'lmaydi.)

b) shart maylidagi fe'l va bo'ladi, bo'lmaydi so'zlari bilan; (Bu masalani janjalsiz hal qilsa bo'ladi.):

v) fe'lining harakat nomi shakli va kerak, zarur, lozim, darkor, mumkin so'zlari bilan; (Do'stning aybini yuziga aytish kerak.):

g) majhul nisbat qo'shimchasini olgan fe'l bilan; (Samarqandga shu yo'l bilan boriladi.):

d) to'g'ri so'zi hatda kelmoq fe'lining tuslangan shakli bilan; (Balki undan qochib yurishga to'g'ri keladi.) Ammo odamni ish tanitadi.(O.)

2. Kesimsiz bir bosh bo'lakli gap; atov gap.

Kesimsiz bir bosh bo'lakli gap faqat ega tarkibidan iborat bo'ladi, kesim bo'lmaydi. Kesimsiz bir bosh bo'lakli gap nominativ gap (atov gap) deb yuritiladi.

Bosh kelishikdagi ot, otlashgan so'z bilan ifodalashib, predmet yoki voqea hodisalarning mavjudligini tasdiqlovchi gaplarga atov (nominativ) gap deyiladi.

Masalan; May. Ajoyib so'lim bir bahor!

Atov gaplar shaklan oddiy so'z va so'z birikmalarga o'hshaydi, ammo maxsus gap intonatsiyasining bo'lishi bilan va ma'lum bir fikr tugalligining ifodalanishi bilan ulardan farqlanib turadi. Oddiy so'z intonatsiya orqali gapga aylanadi. Nominativ gapdan keyin uning mazmunini to'ldirib keluvchi gap kelishi talab qilinadi.

Atov gap yig'iq va yoyiq bo'lishi mumkin. Atov gap bir bosh bo'laklining o'zidangina iborat bo'lsa, yig'iq bo'ladi; Tun. Hamma shirin uyquda yotibdi. (O.H.) Atov gapda bosh bo'lakdan tashqari, zgning aniqlovchisi ham bo'lsa, yoyiq bo'ladi; Yangi shahar ko'chalari. Ilk *bahor* shabodasi yoqimli esadi.

Foydalangan adabiyotlar

1.M.Usmonova, E. Azlarov O'zbek tili (Universitet va pedagogika institutlari uchun) qayta ishlangan 2-nashr.- T.: O'zbekiston, 1991.

2. A. Nurmonov va boshqalar. O'zbek tilining nazariy sintaksisi.- T.:Fan, 1992.

3. I.Rasulov. Bir sostavli gaplar tasnifi // Til va adabiyot, 1991.- № 4.

4. F. Ubayeva, R. Saydullayev To'liqsiz gaplar to'g'risida ba'zi bir mulohazalar //O'zbek tili va adabiyoti, 1997.- № 5.

**Mavzu: Bo`laklarga ajralmaydigan gaplar.
To`liq va tuliqsiz gaplar.**

Reja:

1. Bo`laklarga ajraladigan gaplar va bo`laklarga ajralmaydigan gaplar haqida ma`lumot.
2. Bo`laklarga ajralmaydigan gaplarning ma`no xususiyatiga ko`ra turlari
3. To`liq va to`liqsiz gaplar haqida ma`lumot.
4. To`liqsiz gaplarda bosh va ikkinchi darajali bo`laklarning tushirilishi.

1. Bo`laklarga ajratilgan gaplar va bo`laklarga ajralmaydigan gaplar haqida ma`lumot.

Sodda gaplar bo`laklarga ajralish — ajralmasligi jihatidan ikki xil bo`ladi; bo`laklarga ajraladigan gaplar va bo`laklarga ajralmaydigan gaplar bosh va ikkinchi darajali bo`laklarni aniqlash mumkin bo`lgan gaplar bo`laklarga ajraladigan gaplar deyiladi.

Ikki tarkibli gaplar va bir tarkibli gaplarning yuqorida bayon qilingan turlari bo`laklariga ajraladigan gaplar sanaladi.

Nuqda sodda gapning shunday turlari ham uchraydiki, ularning na ega, na kesim tarkibiga ajratib bo`ladi.

Masalan; — Men hokimiyatgacha kuzatib boraman. — Mayli.(A.Q)

2. Bo`laklarga ajratiladigan gaplarning ma`no hususiyatiga ko`ra turlari.

Bo`laklarga ajralmaydigan gaplar dialogik nutkida qo`llanib, quyidagi ma`nolarni ifodalaydi;

1. Tasdiq yoki inkorni; Ha. Xo`p. Durust. Mayli.Yo`q.
2. So`roqni; Rostdanmi? Maylimi?
3. Rasm —odatni; Salom. Xayr. Marhamat.
4. Tahsin: Barakalla. Ofarin. Rahmat. Tashakkur.
5. Buyruqni:Bas.Jim.
6. His —tuyg`uni: Uh! Voydod! Ura!

Bularning ba`zilariga misollar:—Barakallo!... To`kilgan uzumlarni yig`ib ber —chi menga!(A.Qod.)

Bo`laklarga ajralmaydigan gaplar mustaqil so`zlardan boshqa so`zlar: yuklama, modal so`zlar, undovlar bilan ifodalanishi, ikkinchi darajali bo`laklar bilan yoyiq holda kela olmasligi jihatdan bir tarkibli gaplardan farq qiladi.

3. To`liq va to`liqsiz gaplar haqida ma`lumot.

Sodda gaplar.zarur bo`laklarning to`la ifodalanishi yoki tushirilishiga ko`ra ikkiga bo`linadi: to`liq gap va to`liqsiz gap.

Bayon etilayotgan fikrni ifodalash uchun zarur bo`lgan bo`laklarning barchasi ishtirok etgan gap to`liq gap deyiladi. Aytilayotgan fikrni ifoda qilish uchun zarur bo`lgan bo`laklarning bir qismi tushirilgan gap to`liqsiz gap deyiladi. Lekin to`liqsiz gapdagi tushirib qoldirilgan bo`lak kontekstdan, oldingi gapdan anglashtb turadi. Masalan; Oting nima? — Tal`at. — Kimning o`g`lisan? — Nazir akaning. (R.F.)

4. To`liqsiz gaplarda bosh va ikkinchi darajali bo`laklarning tushirilishi.

To`liqsiz gaplar dialogik nutqda ko`p uchraydi. To`liqsiz gaplarda quyidagi gap bo`laklari tushirilishi mumkin:

1. Kesim va unga oid so`zlar: — Seni bu ishga kim majbur qildi! — Vijdonim, halqimning amri.
2. Ega: — Siz she`r ham yozyapsizmi, Oydin? — Yozyapman. (M.q.)

3. Ega va kesim: — Ishni men kimdan qabul qilib olayotibman ?.. — Bo`lim boshlig`idan..
4. Ikkinchi darajali bo`laklar: — Kim muzeyga bormoqchi? — Hammamiz boramiz.

Adabiyotlar ro`yxati:

1. U.Tursunov, N.Muxtorov, Sh. Rahmatullayev. Hozirgi o`zbek adabiy tili.- Toshkent: Ozbekiston, 1992.
2. A.G`ulomov, M.Asqarova. Hozirgi o`zbek adabiy tili:Sintaksis.- Toshkent:O`qituvchi, 1987.
3. G`.Abdurahmanov. O`zbek tili grammatikasi.- Toshkent:O`qituvchi, 1996.
4. N.Mahmudov, D.Nurmenov. O`zbek tilining nazariy grammatikasi.- Toshkent, 1995.
5. Sh.Shoabdurahmonov, M.Asqarova, A.Hojiyev. Hozirgi o`zbek adabiy tili. I qism, II qism. -Toshkent: O`qituvchi, 1980.
6. O`zbek tilining imlo lug`ati.- Toshkent:O`qituvchi, 1995.

Adabiyotlar:

1.	I.Karimov.	Barkamol avlod – O`zbekitson taraqqiyotining poydevori. -Toshkent, 1997.
2.	Jamolxonov H.A.	Hozirgi o`zbek adabiy tili. - T.: «Talqin» nashriyoti. 2005,
3.	G` .Abdurahmonov, A. Sulaymonov, X. Xoliyorov, J. Omonturdiev	Hozirgi o`zbek adabiy tili. Sintaksis.- T.: O`qituvchi, 1979.
4.	M. Asqarova.	Hozirgi uzbek adabiy tilidan ma`ruza matnlari (Sintaksis). -Toshkent, 2000-yil.
5.	U. Tursunov, J.Muxtorov. Sh. Rahmatullayev.	Hozirgi o`zbek adabiy tili. - Toshkent: O`zbekitson, 1992-yil
6.	O`zbek tili grammatikasi.	T.: Fan, 1975 yil. -1-qism.
7.	O`zbek tili grammatikasi.	T.: Fan, 1976 yil.- 2-qism.
8.	O`zbek tilining imlo lug`ati.	T.: O`qituvchi, 1995- yil.
9.	Q. Safayev, R. Yunusov	Hozirgi o`zbek adabiy tilidan ma`ruza matnlari (Morfologiya). -Toshkent, 2000.
10.	R.Ikromova D. Muhamedova, D. Shodmonqulova, X. G`ulomova.	Hozirgi o`zbek adabiy tilidan ma`ruza matnlari (Sintaksis). -Toshkent, 2001-yil.
11.	M.A.Hamroyev	O`zbek tilidan ma`ruzalar majmasi.- T., 2007-yil.
12.	Sh.Rahmatullayev	Hozirgi adabiy o`zbek tili. -T.:Universitet, 2006.
13.	R.Sayfullayeva va b.	Hozirgi o`zbek adabiy tili. Sintaksis. -T., 2006.
14.	Z.D.Toshpo`latov	Ona tili: pedagogika institutlari talabalari uchun o`quv qo`llanma
15.	M. Hamroev, D. Muhamedova, D. Shodmonqulova, X. G`ulomova, Sh. Yo`ldosheva	Ona tili: Darslik.- Toshkent, 2008.-300 b.

16.	B.Mengliyev, O`.Xolyorov	O`zbek tilidan universal qo`llanma.- Toshkent: Fan, 2008.- 436 b.
17.	M.Asqarova, R.Yunusov, M.Yo`ldoshev, D.Muhamedov	O`zbek tili praktikumi.- Toshkent: Iqtisod-Moliya, 2006.- 304 b.
18.	M.Hamrayev	Ona tili.-Toshkent: Sharq, 2011.- 176 b.
19.	Nam Du. uz.	Nam DU
20.	NUU.uz.	Milliy universitet
21.	Ziyo NET. uz.	Ziyonet
22.	Uza.uz.	Axborot agentligi
23.	EDU. uz.	Oliy ta'lim vazirligi
24.	Gov. uz.	Hukumat qarorlari